

**Omonov Bahodir Nurillayevich**

**MILLIY G'OYA: O'ZBEKISTONNI  
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI**



O‘ZBEKISTON REPSBULIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“MILLIY G‘OYA VA MA‘NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

Omonov Bahodir Nurillayevich

**“MILLIY G‘OYA: O‘ZBEKISTONNI  
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI”**

fanidan talabalarga mustaqil ishlarni bajarilishi bo‘yicha

*Uslubiy qo‘llanma*

Qarshi – 2020

Ushbu uslubiy qoʻllanma oliy taʼlim yoʻnalishi, kollej va akademik litsey talabalari uchun “Milliy gʻoya: Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanidan mustaqil ishlarni bajarish uchun zaruriy uslubiy koʻrsatma va topshiriqlar, zarur adabiyotlar va internet manzillarida mavjud saytlar berilgan.

Uslubiy qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2005 yil 21 fevralda tasdiqlangan “Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi” toʻgʻrisidagi namunaviy Nizomiga muvofiq tuzildi.

Tuzuvchi: **Omonov B.N.**

Taqrizchilar: **dots. Togʻayev Sh.X.**  
**dots. Ochilova G.A**

*Uslubiy qoʻllanma Qarshi davlat universitetining Oʻquv uslubiy kengashining Bayonnoma № 4, 12.12.2019 yildagi yigʻilishida muhokama etilib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura boʻlmasa odam, jamiyat, davlat oʻz yoʻlini yoʻqotishi muqarrar... Milliy mafkura – bu xalqning, millatning oʻtda yonmaydigan, suvda choʻkmaydigan oʻlmas eʼtiqodidir.*

Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti,  
buyuk davlat va siyosat arbobi **Islom KARIMOV**

*Mafkura sohasida boʻshliq degan narsaning oʻzi hech qachon boʻlmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, taʼsirlanishdan toʻxtamaydi.*

*Demak, unga doimo maʼnaviy oziq kerak. Agar shu oziqni oʻzi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yoʻl bermasligimiz kerak.*

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti  
**Shavkat MIRZIYOYEV**





## **Qarshi davlat universitetining “Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risida”gi**

### **N I Z O M I**

#### **I. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2001 yil 16 avshustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-son qaroriga hamda OUMTVning 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim muassasasida “Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risida”gi Namunaviy Nizomga muvofiq kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi. “Milliy g‘oya: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси” fani bo‘yicha dasturda bakalavr bosqichi uchun 48 soat berilgan, shundan ma’ruzaga 18 soat, amaliy mashhulotlarga 18 soat va mustaqil ta’limga 12 soat ajratilgan.

1.2. Talabaning mustaqil ishi o‘quv rejasida “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanini o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta’minlanadi hamda bajarilishni reyting va baholash tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

1.3. Universitetda talabaning haftalik mustaqil ishlarini umumiy hajmi bakalavriyatning kunduzgi bo‘limida 12 soatni tashkil etadi.

1.4. O‘quv semestri yakunida talabani mustaqil ishi bo‘yicha olgan bahosi har bir fan bo‘yicha auditoriyadagi o‘quv ishlariga qo‘yilgan bahosi bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida, talabaning reyting daftarchasida va o‘qitish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

#### **II. Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari**

2.1. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘qituvchi rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanidan qo‘lga kiritilayotgan yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” faniga doir kerakli ma’lumotlarni izlab topish, materialni tahlil qilishning qulay usul vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an’anaviy o‘quv va ilmiy adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o‘quv adabiyotlari va ma’lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog‘ida yoritilib borilayotgan Milliy mafkura yangiliklaridan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqni ratsional echimini belgilash;
- “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fanidan ma’lumotlar bazasini tashkil etish;
- mustaqil ishda o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- talaba tomonidan ishlab chiqilgan g‘oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

#### **III. Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari**

3.1. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” fani xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;

-berilgan mavzu bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;

-amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish;

-sayohatlar va uning natijalarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;

-seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish;

-malakaviy bitiruv ishini tayyorlash;

-nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;

-amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

-ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarni tayyorlash.

O‘qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

3.2. O‘quv fanlari bo‘yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

3.3. Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo‘yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning



tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

3.4. Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talablarga zaruriy metodik qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

#### **IV. Talaba mustaqil ishining axborot ta'minoti**

4.1. Talaba uchun muayyan fan bo'yicha mustaqil ishi topshiriqlari tegishli kafedra professori (yoki etakchi dotsenti) tomonidan o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabalarga berilgan mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

4.2. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

4.3. Kafedra mudiri va tegishli fakultet dekani taqdimnomasi asosida Oliy ta'lim muassasasi rahbariyati talabalarga mustaqil ishlari bajarish uchun zarur axborot va vositalarini belgilaydi, talabalarga turli kutubxonalar, muzeylar, tarixiy joylar, arxivlar, tarmoq muassasalari va korxonalaridan mustaqil ish uchun zaruriy ma'lumotlar to'plash yuzasidan so'rovnomalar xatlarini rasmiylashtirib boradi.

4.4. Universitet rahbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlari o'z vaqtida bajarish uchun kompyuter texnikasi va internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilib beriladi.

#### **V. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish va baholash.**

5.1. Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi (ishchi o'quv rejasining 10-ustunida keltirilgan) professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining ustoz-shogird ishlari bo'limida qayd etiladi.

5.2. Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadigan konsultatsiyalar jadvali asosida amalga oshiriladi.

5.3. Talabaning mustaqil ishi bo'yicha konsultatsiya soatlari guruh jumalida qayd etib boriladi.

5.4. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

5.5. Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy bahosiga qo'yiladi.

Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha, an'anaviy guruh reyting oynasida va (yoki) fakultet maxsus elektron tarmog'ida yoritilib boriladi.

5.6. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari kafedra tomonidan belgilanadi hamda fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestr) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

5.7. Fanlar kesimida talabalarning mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishlari muntazam ravishda akademik guruhlarda, kafedra yig'ilishlari va fakultet Ilmiy kengashlarida muhokama etib boriladi.

5.8. Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

5.9. Universitetda yuqori darajada bajarilgan talabalarning mustaqil ishlari ma'naviy rag'batlantiriladi.

Mazkur Nizom OUMTVning 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasasining "Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida"gi Nizomi asosida ishlab chiqilgan.

#### **Mustaqil ta'lim mavzulari va bayoni**

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad - bu talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.



# 1-MAVZU: MILLIY G'OYA - O'ZBEKISTON JAMIYATI RIVOJLANISHINING G'OYAVIY ASOSI

## Uslubiy qo'llanma:

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida milliy mafkuraning namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tiladi. Birinchi Prezident I.A. Karimov asarlarida, Prezident SH.M.Mirziyoevning ma'ruzalaridan kelib chiqib, milliy mafkura tushunchasi va mohiyati keng ochib berilgan bo'lib talaba tomonidan to'liq o'rganib chiqish talab etiladi.*

*Ijtimoiy fanlar tizimi ko'rsatilib "Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi" fanini o'rni namoyon etiladi shu bilan birga yuqoridagilar asosida tamoyillari ko'rsatib o'tiladi*

\*\*\*

O'zbek xalqining milliy g'oya vamilliy mafkurasini yaratishni birinchi bo'lib ilgari surgan, uning mamlakatimizni rivolantirish strategiyasi ekanligini ilmiy-amaliy jihatdan asoslab bergan shaxslardan biri O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi I.A.Karimov hisoblanadi.

I.A.Karimov milliy g'oyaning konseptual asoslari to'g'risida fikryuritar ekan, milliy g'oya, milliy mafkura nima uchun, kim uchun kerak, uning ma'no-mohiyati nimadan iborat, degan muhim masalaga ilmiy falsafiyjihatdan quyidagicha javob bergan edilar:

*Birinichidan*, o'zining kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur.Bunda davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim.

*Ikkinchidan*, milliy g'oyaning paydo bo'lish jarayoni oldin g'oya (1) , undan keyin g'oya asosida mafkura (2), mafkura asosida esa tizim (3), keyin siyosat(4) paydo bo'ladi.

*Uchinchidan*, kelgusida qanday jamiyat qurish, kelajagi hayotni qanday tasavvur qilishni aniqlab olish orqali o'zlikni anglash asosida millatning o'zligini anglashi lozim. Chunki,millat o'zligini to'la anglagan taqdirdagina buyuk o'zgarishlar qilishga qodir bo'ladi.

*To'rtinchidan*, milliy. g'oya birinchi navbaida yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga

insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur.

*Beshinchidan*, tarbiyaviy-axloqiy masalalarda, ma'naviy hayotda, kerak bo'lsa, milliy manfaatlarimizga mos keladigan siyosatni izchil olib borishda o'z yo'limizni yo'qotmasligimiz uchun hech qaiday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz darkor. Nega deganda, bugun dunyoda borayotgan kurashlar ichida eng katta, eng ta'sirchan kurash, avvalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda. Va shu kurashda yengish uchun juda katta mablag', imkoniyat va kuchlar safarbar qilinmoqda.

*Oltinchidan*, milliy g'oyaning yana bir muhim ahamiyati shundan iboratki, u millatimizning, xalqimizning o'zligini anglashiga, o'zining milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini yo'qotmasdan, ularni tiklab, avaylab, e'zozlab, yangi, o'sib kelayotgan avlodga yetkazib berish uchun xizmat qilishi kerak.

*Yettinchidan*, milliy g'oya oldiga qo'yiladigan asosiy talablar haqida gapirmoqchi bo'lsak, avvalo u azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor.

*Sakkizinchidan*, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor.

*To'qqizinchidan*, milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasini maqomiga ko'tarilmasligi, aylanmasligi kerak. U jamiyatimizdagi qarashlar rang-barangligi, g'oyalar xilma-xilligini saqlagan holda, ularni bir-biri bilan munozara qilishiga, kurashishiga, bahslashuviga, har qanday partiya, harakat, har qaysi inson, fuqaroning o'z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qilishiga ziyon yoki tazyiq ko'rsatmasligi lozim. Milliy g'oya davlatimiz, jamiyatimiz, xalqimizning yuksalishi yo'lida, buyuk kelajak barpo etishdek ezgu maqsadga erishish va jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib obro'-e'tibor topishimizda birlashtiruvchi kuch-qanot bo'lishi shart.

Milliy g'oya bo'lsa, maqsad oydinlashadi. Ezgu maqsad esa har bir kishini safarbarlikka da'vat etadi, jamiyatni yanada birlashtiradi. O'z



milliy g'oyasi, milliy mafkurasiga ega bo'lgan davlat mustahkam, qudratli va obod bo'ladi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
3. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
4. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. –T.: “O'zbekiston”, 2018 yil 28-dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
7. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan. –T.: “O'zbekiston”, 1998.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: “O'zbekiston”, 2008.
9. Mustaqillik. Ilmiy izohli lug'at. –T.: “SHarq”, 1998.
10. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
11. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. –T.: “Ma'naviyat”, 1999.
12. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: “O'zbekiston”, 1995.
13. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. –T.: 2000.
14. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T.: “Sharq”, 2001.
15. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2018.

## 2-MAVZU: KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING G'OYAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI

### Uslubiy qo'llanma.

**Korrupsiyaga qarshi kurashishning g'oyaviy asoslarini atroflicha o'rganish, respublikamizda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunning huquqiy mohiyatini o'rganish, shu haqidagi ilmlarni shakllantirish.**

Korrupsiya o'zi nima? Uni kimlar amalga oshiradi? Korrupsiya qanday vujudga keladi? Uning asl mohiyati, uni harakatlantiruvchi kuchlar kimlar?

— degan muammoli savollar jamiyatimizda uchrab turadi. Ommaviy axborot vositalari orqali, korrupsiya bilan bog'liq juda ko'plab jinoyatlarni ko'rishimiz mumkin.

**Korrupsiya** so'zi (lot. *corrumpō*) aynish, poraga sotilish ma'nolarni anglatadi. Biror mansabdor shaxsning qonunchilikka va axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Korrupsiya atamasi odatda siyosiy apparatga nisbatan ishlatiladi. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi. Xalqaro darajada 1970-yilda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha “Loksid ishi” eng yirik korrupsiya ko'rinishlariga misol bo'ladi.

Korrupsiyaning eng keng tarqalgan turlariga poraxo'rlik, firibgarlik, tovlamachilik, nepotizm kiradi. Bunday jinoyatlarning ko'plab sodir etilishi iqtisodiyotni zaiflashtirib, siyosiy boshqaruvni izdan chiqarishi va fuqarolarni davlat tizimi va siyosiy tizimlarga nisbatan ishonchsizligini keltirib chiqarishi mumkin. Mustaqillikka erishganimizdan keyingi davrda ushbu turdagi jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan, unga qarshi kurashuvchi davlat idoralari, ularning tarkibiy tuzilmalari tashkil etilgan bo'lsada, unga qarshi kurashish ko'ngildagidek bo'layotgani yo'q. Tom ma'noda korrupsiyaviy jinoyatchilik ildiz otib, miqdori kun sayin oshib bormoqda. Eng xatarlisi esa odamlarni bunday holga nisbatan befarqligi, unga oddiy holat sifatida munosabatda bo'lishidir. Chuqurroq o'ylab qarasaq korrupsiya va unga bog'liq bo'lgan iqtisodiy jinoyatchilik davlatlarning bugungi iqtisodiy va siyosiy vaziyatida



taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi asosiy xavf manbai, xavfsizlikka tahdid hisoblanadi.

Korrupsiyadan ko'rilayotgan zararning ko'lami cheksiz. Global moliyaviy oshkorlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2001-yildan 2010-yilga qadar dunyoning 150 rivojlanayotgan davlatida 6 trillion dollarga yaqin pul korrupsiya bois ko'kka sovurilgan. Bunday davlatlar ro'yxatining boshida Xitoy turibdi. O'tgan 10 yil davomida bu o'lkada 2,75 trillion dollar noqonuniy oldi-berdi uchun sarflangan. Ayni davrda Meksikada 476 milliard dollar pul davlat g'aznasidan o'marilgan, ya'ni har bir fuqarodan 4500 dollardan o'g'irlandi degani. Rossiyada korrupsiya keltirgan zarar 152 milliard dollarga teng. Afrika davlatlarida eng korrupsiyalashgani Nigeriya. U yerda noqonuniy kapital aylanmasi 129 milliard dollarga teng.

Mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro bu tahdidni esda tutmog'i darkor. Halol mehnat qilish, o'z bilimi, kuch-g'ayrati va ijodiy qobiliyatini sarflash uchun barqaror shart-sharoit bo'lishini istaydigan, farzandlari va yaqin kishilari kelajakda ham demokratik, fuqarolik jamiyatida sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlarining samaralaridan to'la-to'kis foydalanishni orzu qiladigan har bir fuqaro, korrupsiya yo'lga o'z vaqtida zarur to'siq qo'yilmasa, bu illatlar qanday ayancli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini yaxshi anglab yetmog'i lozim. Biz korrupsiya balosiga birgalikda, ahillik bilan, dadil qadamlar ila kurashmog'imiz zarur.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish.** Korrupsiya – jahondagi har qanday davlatda fuqarolarning tinchligi va xotirjamligi, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazuvchi, inson huquqlari buzilishiga olib keluvchi, iqtisodiy bozor munosabatlariga to'sqinlik qiladigan o'ta xavfli illatlardan biridir. Ya'ni, jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanmas ekan, davlatning iqtisodiy, siyosiy salohiyati zaiflashadi, fuqarolarning huquq va erkinliklari kamsitiladi.

Korrupsiya – illat, taraqqiyot kushandasi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ushbu illatga qarshi qator chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilib, samarali amalga oshirilib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza shakllantirildi. E'tirof etish joizki, davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya holatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uning oldini olish, ushbu illatni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etilishini hamda

ijrosi monitoringini ta'minlash bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2015 yilning 26 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida «Korrupsiyaga qarshi kurashish – jamiyat va davlat xavfsizligining garovi» mavzusida tashkil etilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ham shu ana mavzuga bag'ishlandi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati, Oliy sud, Bosh prokuratura, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, shuningdek, boshqa vazirlik, qo'mita va tashkilotlar, ta'lim muassasalari hamda Ichki ishlar vazirligi sohaviy xizmatlarining vakillari ishtirok etishdi.

*2017 yil 4 yanvardan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. Har bir qonun yaxshilikni ko'zlab, ezgu maqsadda qabul qilinadi. Ayrim qonunlar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra davlat va jamiyat taqdiri, xalq kelajagi, har birimizga daxldor bo'ladi. Milliy parlamentimiz tomonidan qabul qilinib, 3 yanvar kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun ana shunday tarixiy ahamiyatga ega hujjatlardan biridir.*

6 bob va 34 moddadan iborat ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar va meyorlar belgilangan.

Qonunda unga shunday ta'rif berilgan: “Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan.

Mazkur qonun bilan yaqindan tanishish, uning har bir moddasini chuqur o'rganib, hayotimizga tatbiq etishga intilish, sodda qilib aytganda, korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushunish, mustaqil idrok etish, eng muhimi, unga qarshi kurashish har birimizning fuqarolik burchimizdir.



**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. 2017 yil 4 yanvardan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. 5-son.
3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
4. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. – Toshkent, “O'zbekiston” 2018 yil 28-dekabr.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
8. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan., –T.: “O'zbekiston”, 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: “O'zbekiston”, 2008.
10. Mustaqillik. Ilmiy izohli lug'at. –T.: “Sharq”, 1998.
11. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
12. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. –T.: “Ma'naviyat”, 1999.
13. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: “O'zbekiston”, 1995.
14. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – T.: 2000.
15. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T.: “Sharq”, 2001.
16. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2018.

**Uslubiy qo'llanma**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning milliy mafkuramizga bag'ishlangan fikr mulohazalari bayon etilgan. Milliy mafkuraning hayotimizdagi o'rnini, asosiy tamoyillari, kundalik ehtiyojga aylanishi, uning maqsadlari va ustivor g'oyalari, mafkuraviy tahdidlar to'g'risida Prezidenti SH.M.Mirziyoevning BMT 72 sesiyasidagi ma'ruzasining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Talaba tomonidan ushbu chuqur o'rganilgan holda mamlakatimiz hayotida ushbu ma'ruzadagi mulohazalar bilan solishtirilib talaba fikri so'raladi.**

Axborot tahdidi nima? Bu savolga adabiyotlarda: axborot tahdidi - axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug'diruvchi sharoit va omillar yig'indisidir, – degan ta'rif berilgan bo'lib, uni bir oz takomillashtirgan holda quyidagicha ta'riflash mumkin. Demak, *axborot tahdidi deb, shaxs, elat, millat, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug'diruvchi sharoit va omillar haqida to'plangan, qayta ishlangan holda manipulyatsiya 2 shaklida axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali tarqatiladigan qo'rqitish, do'q, po'pisa qilishga asoslanga nxatarli xabarlar yig'indisiga aytiladi. Axborot tahdidlarini quyidagicha tasniflash mumkin:*

**1. Tahdid obyektlari bo'yicha:**

- fuqarolarning axborot sohasida amalga oshiriluvchi konstitutsion huquq va erkinliklariga tahdidlar;
- jamiyat ma'naviy hayotiga tahdidlar;
- axborot infratuzilmasiga tahdidlar;
- axborot resurslariga tahdid.

**2. Tahdid manbai bo'yicha:**

- tashqi - tabiiy ofatlar, texnogen, siyosiy, ijtimoiy omillar, axborot va kommunikatsion texnologiyalar, boshqa tashqi ta'sirlar bilan bog'liq;
- ichki - hisoblash va kommunikatsiya texnikasining ishdan chiqishi, dasturiy ta'minotdagi xatolar bilan bog'liq.

**3. Tahdid yuzaga kelishiga ko'ra:**

- tabiiy (obyektiv) - inson ixtiyoridan tashqari obyektiv tabiiy jarayonlar yoki tabiiy hodisalarning axborot muhitiga ta'siri natijasida;



– sunʼiy (subyektiv) - insonning axborot muhitiga taʼsiri natijasida kelib chiqadi.

Sunʼiy tahdidlar quyidagilar bilan farqlanadi:

– ixtiyorsiz (tasodifiy) tahdidlar - dasturiy taʼminot, xodimlarning xatolari, hisoblash va kommunikatsiya texnikasining ishdan chiqishi va hokazo;

– ixtiyoriy (qasddan) tahdid – axborotlar bazasiga yoki makoniga ruxsatsiz kirish, uning uchun tahdid qiluvchi maxsus dasturiy taʼminotni ishlab chiqish, virusli dasturlarni ishlab chiqish, tarqatish va hokazolarni amalga oshirishi mumkin. Ixtiyoriy tahdid kishilarning harakatlariga bogʻliq boʻlib, u axborotning konfidensialligi, yaxlitligi va qulayligini ruxsatsiz buzish, shuningdek, resurslardan oʻz maqsadlarida foydalanishga qaratilgan boʻladi. Taʼsir koʻrsatish prinsipiga koʻra imkoniyatdan va yashirin yoʻllardan foydalangan holda konfidensiallikni, yaxlitlikni hamda qulaylikni buzish maqsadida amalga oshirilishi mumkin. Taʼsir xarakteriga koʻra u faol va sust boʻladi. Taʼsir etishiga koʻra axborot muhitiga umumiy taʼsir etuvchi va uning aloqida elementlariga taʼsir etuvchi taqdidlarga boʻlinadi. Aniqrogʻi, “tahdid” arabcha soʻz boʻlib doʻq qilish, qoʻrqitish, poʻpisa; “xuruji” ham arabcha soʻz boʻlib olgʻa chiqish, otlanish, soʻzga chiqish, toʻsatdan hujum qilish degan maʼnolarni anglatadi. Shunga koʻra, sodaroq qilib aytganda **axborot tahdidi** – bu kimlarnidin qoʻrqitishga asoslangan zararli, oʻta xatarli xabarlarini tarqatib doʻq qilish boʻlsa, **axborot xuruji** esa axborot tahdidi sohiblarining axborot vositalari orqali toʻsatdan hujum uyushtirishlari hisoblanadi. Umuman olganda **“axborot xuruji”** tushunchasiga quyidagicha taʼrif berish mumkin. **Axborot xuruji bu oʻzbek xalqining ichki va tashqi Umuman olganda “axborot xuruji”** tushunchasiga quyidagicha taʼrif berish mumkin. **Axborot xuruji bu oʻzbek xalqining ichki va tashqi gʻanimlari tomonidan atayin toʻsatdan uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, maʼnaviy madaniy hayotida yuz berayotgan ijobiy oʻzgarishlar, islohotlar natijasida erishilgan marralar, baʼzida yoʻl qoʻyilgan xato va kamchiliklar haqida axborot-kommunikatsiyalari, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali ishonchsiz, yolgʻon, oʻydirma, odamlarning ongini zaharlaydigan har xil maʼlumotlarni tarqatish uchun toʻsatdan qilayotgan hujumidir. Shunday oʻta bemaʼni axborotlarning oldini olish uchun ham axborot xavfsizligini taʼminlash zarur. Demak, oʻzbek xalqining qoʻlga kiritgan mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirishda axborot xavfsizligini taʼminlashning oʻrni beqiyosdir.**

### 3. Axborot xavfsizligi tushunchasi va uni mohiyati.

XXI asrga kelib bu tushunchaning mazmuni oʻzgacha maʼno kasb eta boshladi. Uning bugungi kundagi oʻrni haqida I.A.Karimov taʼkidlaganidek: Xavfsizlik uzluksiz holatdir, hadsiz-hududsizdir... Har bir mintaqada xavfsizlikni taʼminlash muammolari muayyan mohiyatga ega. Har bir mintaqaning oʻz xususiyatlari, oʻz tahdid manbalari va xavfsizlikni saqlash omillari bor<sup>1</sup>. Yuqorida keltirilgan axborot va xavfsizlik tushunchalarining qisqacha falsafiy tahlillaridan kelib chiqqan holda **axborot xavfsizligi** tushunchasiga quyidagicha falsafiy taʼrif berish mumkin.

**Axborot xavfsizligi bu – muayyan shaxs, oila, ijtimoiy guruh, mehnat va xizmat jamoasi, davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, maʼnaviy-madaniy omillar asosida xavf-xatarsiz tarzda normal faoliyat olib borishlari uchun zarur boʻlgan informatsiyalarni oʻrnatilgan tartibda saqlash va yetkazib berish tizimidir.**

#### Internet va undan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari.

Mafkuraviy gegemonlikka intilayotgan kuchlar axborot texnologiya kommunikatsiyalar, jumladan internet orqali mamlakatimizga mafkuraviy xurujlarni amalga oshirmoqda. Bunga sabab qilib quyidagi internetdan foydalanish borasidagi fikrlarni keltirish mumkin. Xoʻsh, internet nima? **Internet** *ингл. Internet – тўр, ўрчимчак тўпу: умумжаҳон тармоғи* degan soʻzlardan olingan boʻlib, oʻzbek tilida umumjahon kompyuter tarmogʻi, yaʼni butun jahon boʻyicha tarqalgan va telefon hamda optik-tolali liniyalar, modemlar va boshqalar bilan oʻzaro bogʻlangan, har qanday axborotni oʻzaro almasha oladigan katta miqdordagi kompyuterlar majmui degan maʼnoni bildiradi. Bu tarmoq 1972 yilda AQSH mudofaa vazirligining loyihasi asosida vujudga kelgan boʻlib, u XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda internet vaqtini va mablagʻni tejashga yordam berishidan tashqari axborotlarni juda tez uzatish va qabul qilish, kerakli maʼlumotlarni tez izlab topish, uzogʻimizni yaqin qilish, onlayn suhbatlar qurish, dunyo voqealari bilan qisqa fursatlarda xabardor boʻlish kabi koʻplab imkoniyatlarni yaratib beradi.

Hozirgi kunda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlari xizmatlari keng ommalashib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqning maqsadi internetda

<sup>1</sup> Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik va barqaror taraqqiёт yoʻlida. T.6. –T.: Oʻzbekiston, 1998. 140.





o'zaro qiziqishlar yoki faoliyatga ega shaxslar bilan muloqot qurishdan iborat. Foydalanuvchilarining soni bo'yicha hozirda G'asebook ijtimoiy tarmog'i 500 000 000 foydalanuvchisi bilan yetakchilik qilmoqda. Undan keying o'rinlarda MuSrase (255000000 foydalanuvchi), Odnoklassniki (205000000 ortiq), Twitter (200000000 foydalanuvchi), Windows Live Spaces (120 000 000 foydalanuvchi) ijtimoiy tarmoqlarni keltirish mumkin. Ammo hamma narsaning yaxshi va yomoni bo'lganidek, bu qulayliklar bilan birga internetdan samarali va maqsadli foydalanuvchilardan tashqari undan vaqtni bekorga o'tkazish, turli ko'ngilochar hamda behayo saytlardan foydalanuvchilar ham ko'payib bormoqda. Buning asosiy sababi internetdan foydalanuvchilarning, ayniqsa, yoshlarning tizimdan maqsadli foydalanish ko'nikmalari va madaniyatini to'liq shakllanmaganligi deb aytish mumkin. E'tibor berib, keltirilgan veb sahifalar tahlili quyidagi salbiy holatlar va kamchiliklar: foydalanuvchilarning ayrimlari o'z nomlari bilan ro'yxatdan o'tkazmasligi; nomaqbul foto sur'atlar qo'yishi; o'zaro muloqatlarda hurmatsizlik qilishi; bema'ni gaplar yozishi, ba'zan noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanishi; sahifalar ijtimoiy bo'lishiga qaramasdan siyosiy muloqatlar o'rnatishi kabi holatlarning uchrab turishini ko'rsatmoqda.

Shu bilan bir qatorda katta moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan korchalonlar o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish maqsadida o'zlarining g'oyaviy dushmanlarini badnom qilish yoki boshqalar ustidan mafkuraviy gegemonlikka erishish uchun o'zga xalqlarga nisbatan mafkuraviy xuruj qilish ishlarini bajarishda internetdan keng ravishda foydalanmoqda.

**Internet orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlar va uning oqibatlari.** Yuqorida ta'kidlaganidek, internet - insoniyat aqliy salohiyati erishgan eng buyuk kashfiyotlardan biri bo'ldi. Bugungi kunga kelib dunyo aholisining deyarli 35% (2 milliard 400 milliondan ortik) qismi internetga ulanish imkoniga ega. Mutaxassislar tomonidan 2020 yilga borib bu ko'rsatkich 50% ni tashkil etishi aytib o'tilmoqda. Mutaxassislarning tadqiqotlari natijasiga ko'ra hozirda internet tarmog'idagi ma'lumotlarning 70-75 % inson uchun zarar keltiruvchi g'oyalar hisoblanadi. Mutaxassislar o'tkazgan maxsus tadqiqotlar natijalariga ko'ra, barcha mavjud saytlarning taxminan 12 foizi parnografik xususiyatlarga ega, 44,0% zo'ravonlik va yovuzlik ko'rinishiga, 41,0% jangari, turli otishmalar va portlashlarga asoslangan mavzuga bag'ishlangan. Shuningdek, bugungi kunda, insoniylikka

butunlay zid, yovuzlikka asoslangan shaytoniy sektalar faoliyati ham jadallashmokda.

Mana shunday holatlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizning har bir fuqarosida samarali va mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylandi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek: — “Bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi. Shunga o'xshash zararli ta'sirlar davom etaversa, millat o'zligini yo'qotishi, ming yillik an'analarini boy berib, olomonga aylanib qolishi ham hech gap emas. Tabiiy savol tug'iladi: bunday mafkuraviy ta'sirlar salbiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak? Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ulami o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, otabobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning, men o'zbek farzandiman deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir”<sup>2</sup>.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. 2017 yil 4 yanvardan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 5-son,
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
4. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. –T.: “O'zbekiston”, 2018 yil 28-dekabr.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir //Ozod va obod Vatan, erkin va farovon ha'et – pirovard maqsadimiz. T.8. –T.:O'zbekiston, 2000. –B.494.



8. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan., –T.: “O‘zbekiston”, 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: “O‘zbekiston”, 2008.
10. Mustaqillik. Ilmiy izohli lug‘at. –T.: “SHarq”, 1998.
11. Alimova D. Insoniyat tarixi – g‘oya va mafkuralar tarixidir. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
12. Abilov O‘. Milliy g‘oya, ma'naviy omillar. – T., “Ma'naviyat”, 1999.
13. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: “O‘zbekiston”, 1995.
14. Boboyev X., G‘ofurov Z., O‘zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. –T.: 2000.
15. Ziyoev X. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. – T.: “Sharq”, 2001.
16. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. –T.: “Mavoraunnahr”, 2016. 206.
17. Aliyev B., Meliqulov A. Axborot xurujlaridan xabardormisiz? T.: “Ma'naviyat”, 2015.
18. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2018.

#### 4-MAVZU: MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR JAMIYAT RIVOJINING MUHIM SHARTI

O‘zbek xalqi mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zining milliy qadriyatlarini qaytadan tiklash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mustaqillik yillarida esa yangi milliy qadriyatlar shakllanib rivojlana boshladi. Xo‘sh, qadriyat nima? — Qadriyat aslida arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida — *qiymat, ahamiyat, qimmatbaho buyumlar, xalq boyligi* degan ma'nolarni anglatadi. Qadriyat falsafiy ma'noda inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy qategoriya hisoblanadi. Qadriyatlarni odatda moddiy va ma'naviy, umuminsoniy va milliy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, shaxsiy-individual shakllarga ajratib o‘rganiladi.

*Moddiy qadriyatlar* – bu odamzod uchun zarur va ahamiyatli bo‘lgan tabiiy muhit, undagi shart-sharoitlarning qulayligi, jamiyat hayotini ta'minlaydigan iqtisodiy omillarning mavjudligi bo‘lib, u o‘z ichiga uy-joy, mehnat qurollari, mehnat ashyolari va boshqalarni qamrab oladi. Ularning barchasi odamzotga moddiy in'om va ma'naviy kuch berib milliy g‘oyaning yashovchanlik qobiliyatini yanada oshiradi.

*Ma'naviy qadriyatlar* – bu inson ma'naviyati va axloqiy qiyofasiga, jamiyatning ma'naviy hayotiga daxldor bo‘lib, odamlarni tarbiyalashga, ularning barkamolligini ta'minlashga, millatlar va jamiyatlarni ezgulik va bunyodkorlikka undashga xizmat qiladigan qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

Mazkur tushunchada ma'naviy qiyofa, tafakkur va turmush tarzi, mentalitet, urfodatlar, an'analar, Vatan va xalqqa, o‘zgalarga nisbatan munosabat, tinchlik va totuvlik, barqarorlik va bunyodkorlikka intilish va hokazo- larning qadrqimmatini yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda inson tarbiyasi va kamolotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllari tushuniladi.

*Umuminsoniy qadriyatlar* – bu odamzodning butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo‘lgan yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy va axloqiy sohalarida aziz va ardoqli bo‘lgan narsalar, amallar va tamoyillar, g‘oyalar va meyorlardan tashkil topgan moddiy va ma'naviy boyliklari tizimidir. Umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari xilma

xildir. Biroq uning eng oliy shakli ideal qadriyatlar hisoblanadi. Jamiyat tarixining hamma davrlarida odamlar ana shu ideal qadriyatlarga intilib, ularga erishishni orzu qilib yashaydi. Kundalik hayot va ilmiy adabiyotlarda eng oliy ideal qadriyatlarga nisbatan qator ibora va tushunchalar keng qo'llaniladi: ma'naviy va axloqiy poklikning umumiy belgisi – yaxshilik; nafosat belgisi – go'zallik; bilim va fan yutuqlarining amaliyotga mosligi–haqiqat; inson huquqlarining oliy ifodasi–erkinlik va tenglik; mafkura va siyosatning to'g'riligi–odillik; odamlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlar – do'stlik; eng hoksor va beg'araz tuyg'ular asosidagi qalblar bog'langani – muhabbat; orzu- umidlarga erishganlik baxt-sodat; o'z yurtini sevmoklik va ardoqlash-vatanparvarlik va hokazo. Demak, ushbu qadriyatlar milliy g'oya va mafkuramizning mazmunini boyitish, hayotiyligini ta'minlashda ma'naviy kuch bo'lib xizmat qiladi.

Istiqlol mafkurasi quyidagi **umumbashariy qadriyatlarni** e'tirof etadi va ulardan oziqlanadi:

- 1) qonun ustuvorligi;
- 2) inson haq-huquqlari va hurfiylik;
- 3) turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- 4) diniy bag'rikenglik;
- 5) dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;
- 6) o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hokazo.

Yuqorida keltirilgan fikrlar o'zbek xalqi milliy mafkurasining jamiyatimiz milliy taraqqiyotining yangicha mazmundagi "yo'l xarita"larini ishlab chiqish va amalga oshirishda uyg'un tarzda harakat qilishi zarurligini ko'rsatadi. Chunki, milliy g'oya va mafkuramiz doimo o'zgarish va rivojlanishda bo'lsagina, jamiyatimizni buyuk kelajak sari yetaklab boruvchi ma'naviy kuchga aylanadi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: "O'zbekiston", 2018.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: "O'zbekiston", 2018.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O'zbekiston", 2018.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. –T.: "O'zbekiston", 2018 yil 28-dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: "O'zbekiston", 1996.
7. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan., –T.: "O'zbekiston", 1998.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: "O'zbekiston", 2008.
9. Mustaqillik. Ilmiy izohli lug'at. – T.: "Sharq", 1998.
10. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. – T.: "Yangi asr avlodi", 2001.
11. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. –T.: "Ma'naviyat", 1999.
12. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: "O'zbekiston", 1995.
13. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. –T.: 2000.
14. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T.: "Sharq", 2001.
15. Nazarov Q.N. Aksiologiya (Qadriyatlar falsafasi) –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2011.
16. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2001.
17. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2018.



## 5-MAVZU: "HARAKATLAR STRATEGIYASI"NING ASOSIY YUNALISHLARI, MAQSADI VA MOHIYATI

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan **2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi** tasdiqlandi: davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning

rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifati tubdan yaxshilash;

iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va



ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi" – bu birinchidan, hayot talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan, maqsad va vazifalari aniq ko'rsatilgan;

ikkinchidan, bajarilishi qat'iy reja asosida tuzilgan, mas'ullari belgilangan;

uchinchidan, bajarilishi moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlangan;

to'rtinchidan, butun ma'no-mazmuni o'zbek xalqining ehtiyoj va manfaatlarini to'la qondirishga qaratilgan; beshinchidan, adolatparvarlik tamoyilidan kelib chiqqan holda vatanparvarlik g'oyalari ruhi bilan sug'orilgan jahonda kamdan – kam uchraydigan milliy ahamiyatga molik bo'lgan dasturdir. Uni bajarish esa yaxshi yashashga intilayotgan barcha odamlarning vazifasidir. Zero, erkin va ijodiy, tashabbus va tadbirkorlik bilan qilingan samarali mehnat – mazkur Harakatlar strategiyasining ruhiy kuch-quvvati, joni, ma'naviy- g'oyaviy-mafkuraviy irodasidir.

Bu xususda 2017 yil 19 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida **SH.M.Mirziyoyev** aytganidek: **"Strategiya – bu yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir"**. Bu strategiyani amalga oshirishning aniq-ravshan falsafiy tamoyilini «inson manfaatlari hamma narsadan ustun», «xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak», «tanqidiy tahlil, qat'iy-tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak», g'oyaviy-mafkuraviy zaminini esa xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi» degan mantiqiy mazmunga boy bo'lgan fikrlar tashkil qiladi.

Demak, bu strategiya XXI asrning birinchi yarmida qisqa muddat ichida o'zbek xalqining hayotida tub burilish yasab, yangi bir davrni boshlab beradi va bunyodkor g'oyaning amaldagi bir ifodasi sifatida uning shonli tarixidan abadiy joy oladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI. Farmon "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 8 fevral 28 (6722)-son.

2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: "O'zbekiston", 2018.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: "O'zbekiston", 2018.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O'zbekiston", 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. –T.: "O'zbekiston", 2018 yil 28-dekabr.
6. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2018.



## 6-MAVZU: MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING FALSAVIY QARASHLARI, MILLIY G'OYA, G'OYAVIY TA'SIR ETISH USULLARI

Markaziy Osiyo – sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri. VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag'dod va Damashqda madaniyat va fan ravnaq topdi.

IX asrda boshlangan arab istilosiga qarshi kurash mustaqil davlat qurish va xalifalikka qaramlikdan xalos bo'lish uchun kurashga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo mo'g'ullar istilosini boshdan kechirdi va unga qarshi kurash jarayonida XIII asr boshlarida bir necha davlatlar – Tohiriylar, Somoniylar, Saljuqiylar va G'aznaviylar davlatlari paydo bo'lib, ular keyinchalik tor-mor qilindi.

IX asr boshlarida dastlab Somoniylar davlati vujudga kelgan bo'lsa, XIII asrning 20-yillarida Xorazmiylar davlati mo'g'ullarning uzluksiz hujumi ostida qoldi. Biroq, ko'p asrlik urushlarga qaramay, Markaziy Osiyoda madaniyat, fan, san'at va adabiyot rivojlanishda davom etdi.

Bu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, va boshqa buyuk allomalar yashab ijod qildilar. Ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko'ra o'sha davrni Markaziy Osiyoda uyg'onish davri deb nomlash mumkin. Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. barcha odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, bu yo'lda o'tmish merosidan va qo'shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish;

2. tabiatni o'rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilish;

3. insonga xos tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish, insonparvarlikni ulug'lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma'naviy qonunlarga rioya qilish;

4. universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlari.

Sharq falsafiy tafakkurining yirik namoyandalari orasida Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomuschi-olim, Yaqin va O'rta Sharqda aristotelizm asoschilaridan biri Forobiy, buyuk faylasuf va tabib Ibn Sino (Avitsenna), atoqli astronom, matematik, shoir va mutafakkir Umar Xayyom, tabib va faylasuf Ibn Rushd (Averroes) bor.

XIV asrning oxiri-XV asrning boshlarida Amir Temur amalga oshirgan harbiy yurishlar natijasida o'lka mustaqilligi qo'lga kiritildi. Temur va temuriylar davrida uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnash bosqichi bo'ldi. Ma'naviyatga homiylik harakati avj oldi. Bunga Samarqandda Ulug'bek astronomiya maktabining vujudga kelishi, rasadxonaning qurilishi, mashhur olimlar Qozizoda Rumiy, al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqalarning fandagi jonbozligi yaqqol misoldir.

Ma'lumki, dunyo tarixida ilk Sharq Uyg'onish davri – Musulmon Renessansi deb nom olgan o'rta asrlar va undan keyingi zamonlarda bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning jahon ilm-fani va madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo'shgan bebaho hissasi dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Xususan, IX-XI asrlarda Xorazmda tashkil etilgan. Ma'mun akademiyasi va —Bayt ul-hikma, ya'ni —Donishmandlik uyi degan nom bilan shuhrat qozongan Bag'dod akademiyasida, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabida samarali mehnat qilgan olimlar, o'tmishda yurtimizda islom dinining mazmun-mohiyatini chuqur tadqiq qilish va targ'ib etish bo'yicha betakror asarlar yaratgan ulamolar butun dunyoga dong taratganlar. O'rta asrlarning ilk davrida ulug' ajdodlarimiz tomonidan matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq fanlar bilan birga, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san'at, arxitektura sohalarida yaratilgan buyuk ilmiy g'oya va kashfiyotlar jahon ilm-fani va sivilizatsiyasi rivojida keskin burilish yasadi. O'z davridagi barcha qiyinchilik va og'ir sinovlarga qaramasdan, bu alloma va mutafakkirlar ilmu fan ravnaqi yo'lidagi o'z burchiga, gumanizm va ma'rifat g'oyalariga hamisha sodiq qolib, haqiqiy ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatdilar va ularning xalqimiz va bashariyat oldidagi buyuk xizmatlari, ayniqsa, mustaqillik yillarida munosib hurmat va e'tibor topib kelmoqda.

Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir.



### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida”gi Qarori. № PQ-3160. 2017 yil 28 iyul.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
4. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. – Toshkent, “O'zbekiston” 2018 yil 28-dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. –T.: “O'zbekiston” 2000. 462-467 b.
8. Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
9. Karimov I.A. Bunyodkorlik y'lidan. 4-jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
10. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan., –T.: “O'zbekiston”, 1998.
11. Mustaqillik. Izoxli ilmiy lug'at. –T.: “Sharq”, 1998.
12. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
13. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. –T.: “Ma'naviyat”, 1999.
14. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: “O'zbekiston”, 1995.
15. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. –T.: 2000.
16. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2018.

### 7-MAVZU: AXBOROT MAKONIDAGI O'ZGARISHLAR, AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH

**Axborotlashgan jamiyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.** XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida dunyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda, shuningdek, tabiatda yuz berayotgan global o'zgarishlar bugungi jamiyatni —Axborotlashgan jamiyat deb atashga asos bo'lmokda.

“Axborotlashgan jamiyat” atamasi dastlab Yaponiyada vujudga kelgan. Yapon faylasuf olimi Y.Xayashi 1969 yilda Yaponiya hukumatiga —Yaponiya axborotlashgan jamiyat bardamligi siyosatiga chizgilar, 1971 yili — Axborotlashgan jamiyat rejasi kabi tadqiqotlarni taqdim etdi. 1971 yildan boshlab mazkur tushuncha ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qo'llanila boshladi. Demak, axborotlashgan jamiyat tushunchasini birinchi bo'lib fanga Tokio texnologik universitetining prof. Y.Xayashi kiritgan. Uning fikricha, moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi. To'g'ri, axborotlashgan jamiyatning mohiyat-mazmuni haqida olimlar tomonidan turli xil qarashlar, g'oyalar, nazariyalar ilgari surilgan. Shular ichida M.Kastelsning fikri diqqatga sazovordir. Uningcha, Axborotlashgan jamiyat mohiyatini bir-biriga bog'liq quyidagi jarayonlar belgilaydi: axborot va bilimlar ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va madaniy rivojlanishning haqiqiy o'zak qudratiga, uning qimmatli manbaiga aylanadi; ishlab chiqarish Axborotlashgan jamiyatni ijtimoiy fenomen tarzda tushuntirib berish masalalari D.Bell, A.Toffler, M. Kastels, U.Rostou, P.Draker, J.Gelbreyt, F.Uebster, I.Masuda kabi olimlarning asarlarida mufassal bayon qilingan. 470 omili bo'lmish xom ashyo, mehnat, mablag' resurslariga tenglashtirilgan axborot va bilim bozorlari shakllana boshlaydi; axborot yetkazib berish va undan foydalanishni ta'minlovchi sohalar ahamiyati shiddatli tarzda osha boradi.

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch qismdan tarkib topadi: **mediatizatsiya** (lot.mediatuus - vositachi) — axborot to'plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni; **kompyuterlashtirish** — axborot izlash va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni; **intellektualizatsiya** — axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan sun'iy intellektdan foydalanish jarayoni. Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni



zamonaviy axborot-texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilma va jarayonlarni takomillashtirish deb, talqin qilish lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektualizatsiya jarayonlari bilan uyg'un holda bo'lishi kerak. Zotan, bu shaxs va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. Axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan moddiy omillar bilan emas, balki ma'naviy omillar – bilim va axborot birinchi o'rinda turishi bilan tubdan farq qiladi. Axborot va bilim olish, ularga ishlov berish hamda ularni saqlash va yetkazish jarayonida jamiyat a'zolarining aksariyati band bo'ladi. Axborotlashgan jamiyatda axborot tayyorlash moddiy ishlab chiqarishni siqib chiqarmaydi, balki uning negizida shakllanib, bu soha rivojiga turtki bo'ladi. 2006 yilning BMT Bosh Assambleyasi "Butun jahon axborot jamiyati yili" deb e'lon qilinishi ham hozirgi kunda jamiyat axborotlashuvining ahamiyati ortib borayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi davrda dunyodagi barcha davlatlarning axborotlashgan jamiyat tomon intilishi kuzatilmoqda.

Axborotlashgan jamiyatda nafaqat turmush tarzi, ma'naviy qadriyatlar tizimi o'zgaradi, moddiy boyliklarga faqat jamg'arma sifatida qarashlar o'rniga madaniy hordiq chiqarish, intellektual boylik ortirish vositasi sifatida yondashuvning ahamiyati ortadi. Rossiyalik faylasuf olim A.A.Chernov global informatsion jamiyat tushunchasini axborot texnologiyalarini o'sib borishi va jamiyat hayotiga kirib borishidir deb izohlaydi: — globallashuv ko'p hollarda axborot va axborot texnologiyalarining yangi sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishidir, —elektron hokimiyatning takomillashuvi, paydo bo'lishi, — kibersiyosatning kengayib borishi, — kiberdemokratiyaning kuchayishi, — siyosiy kommunikatsiyalarni kompyuterlashtirishining rivojlanishi globallashuvni yuzaga keltirmoqda. Yuqoridagi ta'rif va tasnifda axborotlashgan jamiyatning texnik va texnologik jihatlariga asosiy urg'u berilgan, globallashuv faqat axborotlashuv bilangina bog'liq degan xulosa ilgari surilgan. Bu jarayon global o'zgarishlarga xos bo'lib, axborot madaniyati o'sishining rivojlangan bosqichini anglatib, uning jamiyat hayotida tobora salmoqli o'rin egallayotganligini bildiradi. Insoniyat globallashuv va axborotlashtirish deb atalgan yangicha aloqa va hamkorlik tizimlari yo'lga ko'yilgan va tobora jadal sur'atlarda kengayib borayotgan taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Natijada globallashuv va axborotlashuv tushunchalari faqat iqtisodiy hayotni emas, balki ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va boshqa deyarli barcha

sohalardagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylandi.

Globallashuv tufayli odamlar bir lahzada o'zini qiziqtiradigan axborotni darhol olish, unga egalik qilish imkoniyatiga ega. Ushbu jarayon mazmuni to'g'risida I.A.Karimov: — Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgaridek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas, — degan edi.

Shunday qilib, **axborotlashgan jamiyat** — bu tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan narsa, hodisa, voqea, jarayonlar haqida axborotlarni yig'ish, yaratish, saqlash, qayta ishlash, tizimlashtirish, uzatish va qabul qilish, iste'mol, ayirboshlash, taqsimlashga asoslangan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonlarini uyg'un holda tezkor harakatga keltiruvchi intellektual munosabatlar zaminiga qurilayotgan kishilar jamiyatidir.

O'zbekistonning bevosita mustaqilligini saqlashga qaratilgan, ya'ni o'zbeklarning tarixiy makon va zamondagi o'rnini inkor qiluvchi yoki bu haqdagi tarixiy dalillarni soxtalashtirib, ularni buzib jahon afkor ommasiga yetkazishga urinuvchi soxta informatsiyalar oqimidan himoyalaniшни o'z ichiga oluvchi haqqoniy ma'lumotlar tizimini muntazam ravishda ishga solish;

2) globallashuv sharoitida O'zbekistonning iqtisodiyot sohasidagi erishayotgan yutuqlariga rahna soluvchi har xil informatsion xurujlarning oldini olish va ularga ishonchli ma'lumotlar orqali qaqshatqich zarba berish, ya'ni bugungi kundagi jahon-moliyaviy inqirozi sharoitida mamlakatimida yuz berayotgan iqtisodiy harqarorlik, qolaversa, iqtisodiy o'sishning sabablarini tushuntirib berishni ta'minlash, ularni soxtalashtirib yoki eng rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslash orqali — "o'zbek modeli" va uning mantiqiy davomi bo'lgan" O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" ning obro'sini tushirishga intilayotgan g'animlarga qarshi informatsion hujumni uyushtirish;

3) O'zbekistonning siyosiy tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga, ya'ni mamlakatimizning siyosiy — huquqiy hayotini liberallashtirishga, O'zbekistonda — demokratiya yo'q deb, butun dunyoga jar



solayotgan — siyosatchilarning g'oyaviy xurujlari va amaliy xatti-harakatlarining oldini olish va ularni badnom etish;

4) O'zbekistonda yashovchi aholining 60 % ini tashkil etuvchi yoshlami

mustaqillik g'oyasi ruhida tarbiyalash, ularning ongiga milliy mafkuraning

bosh va asosiy g'oyalari singdirishga qaratilgan, ya'ni yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish, har xil mafkuraviy xurujlarga qarshi immunitetini shakllantirish, — ommaviy madaniyatni unsurlari orqali ko'zga

ko'rinmas darajada o'tkazilayotgan ta'sirlar doirasiga tushib qolmaslik uchun olib borilayotgan axborotlar xavfsizligini ta'minlash ishlarini kiritish mumkin.

Axborot xavfsizligining yuqorida bayon qilingan tizimi fuqarolarning axborot erkinligini cheklamaydi, balki ularning bu sohadagi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishga xizmat qiladi. I.A. Karimov ta'kidlaganidek: — Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi insonning axborot olish, axborotni va o'z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu O'zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta'bir joiz bo'lsa, tamal toshi hisoblanadi.

Axborot va in'ikos jarayonining dialektik aloqadorligi masalasidagi yana bir jihat bu axborotlarda in'ikos ettirilgan ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash muammosidir. Bu xususda I.A. Karimov: — "Ayni paytda jahon miqyosida axborotlashtirish jarayonlari tobora globallashtirilib, bu boradagi raqobat kuchayib borayotgan, axborot nainki tovar, balki kuchli mafkuraviy qurolga aylanayotgan hozirgi shiddatli zamonda hayotning o'zi, O'zbekiston milliy manfaatlarini hisobga olgan holda, bu yo'nalishda yangi-yangi vazifalarni oldimizga keskin qilib qo'ymoqda"<sup>3</sup>, — degan edi.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. —T.: "O'zbekiston", 2017.
2. 2017 yil 4 yanvardan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 5-son.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Toshkent axborot texnologiyalari universitetining professoro'qituvchilari va talabalariga, butun jamoasiga // Inson, uning huquq va erkinliklari — oliy qadriyat. T.14. —T.: O'zbekiston, 2006. —B.53–54.

3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. —T.: "O'zbekiston", 2018.
4. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. —T.: "O'zbekiston", 2018.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. —T.: "O'zbekiston", 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. —T.: "O'zbekiston", 2018 y. 28-dekabr.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. —T.: "O'zbekiston", 1996.
8. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan., —T.: "O'zbekiston", 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. —T.: "O'zbekiston", 2008.
10. Mustaqillik. Ilmiy izohli lug'at. —T.: "Sharq", 1998.
11. Alimova D. Insoniyat tarixi — g'oya va mafkuralar tarixidir. —T.: "Yangi asr avlodi", 2001.
12. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. —T.: "Ma'naviyat", 1999.
13. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. —T.: "O'zbekiston", 1995.
14. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. —T.: 2000.
15. Ziyoyev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. —T.: "Sharq", 2001.
16. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. —T.: "Mavoraunnahr", 2016.
17. Aliyev B., Meliqulov A. Axborot xurujlaridan xabardormisiz? —T.: "Ma'naviyat", 2015.
18. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. —T.: "O'zbekiston", 2018.



## 8-MAVZU.: GLOBALLASHUV VA MAFKURAVIY JARAYONLAR

### Uslubiy qo'llanma

**Globalashuv tushunchasi. Geosiyosat tushunchasi. Bugungi dunyoda turli xudud xalklarini ma'naviy-mafkuraviy jixatdan tobe etishga intilish. Hozirgi davr: geopolitik maksadlar va mafkuraviy siyosat. Jaxon maydonlarini mafkuraviy bulib olishga urinishlar. Markaziy Osiyo mintakasidagi mafkuraviy jarayonlar.**

Globalashuv masalasini bugungi kunda barcha mamlakatlardagi olimlar, siyosatchilar, jumalistlar va tadbirkorlar muhokama qilmoqdalar. Ularning barchasi mazkur fenomenni dunyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotining o'ziga xos bo'lgan zamonaviy holati, ularda kechayotgan ichki va tashqi jarayon hamda ularning umumplanetar tarzda rivojlanish tendensiyasi sifatida talqin etmoqdalar. Umuman olganda — *globalashuv* tushunchasi fransuzcha *global* – umumiy va lotincha *globus* – shar so'zlaridan olingan bo'lib, birinchidan, Yer yuziga oid, butun Yer sharini qamrab oluvchi; ikkinchidan esa umumbashariy, keng miqyosdagi; jahonshumul, jahon ahamiyatiga molik, degan ma'nolarni anglatadi.

“Globalashuv” atamasi 1981-1983 yillarda amerikalik sotsiolog Dj.Maklin, amerikalik tadqiqotchi T.Levitt, inglizlik olim R.Robertsonlar tomonidan yozilgan maqola va kitoblarda ishlatilgan<sup>4</sup>. **Globalashuv falsafiy ma'noda** – bu jahondagi mamlakatlarning *ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatli birlashuvi natijasida sodir bo'layotgan voqeahodisalarning tez sur'atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo'lishidir. Globalashuvni jarayon sifatida ontologik jihatdan uchta: birinchidan, tabiat borlig'ida* (iqlimning o'zgarishi, hayvonot dunyosi va o'simliklar olamining kamayib ketishi, tabiiy boylik zaxiralarining tugab borishi va boshqalar); ikkinchidan, *ijtimoiy tabiiy borliqda* (energetik, ekologik, demografik va boshqalar); uchinchidan, *ijtimoiy yoki kishilik jamiyatining taraqqiy etishida* (texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, megapolislarning ko'payishi, iqtisodiy hayot darajasining keskin tabaqalanib borishi va boshqalar) sodir bo'layotgan guruhlariga ajratish

<sup>4</sup> Буянов В.С. Сущность глобализации // Глобализация: Учебник – М.: Изд-во РАГС, 2008. – С.17-18

mumkin. Globalashuvni *makonda* sodir bo'lishiga ko'ra planetar va regional, *zamonda* yuz berishiga qarab doimiy, uzoq muddatli va qisqa muddatli turlarga ajratish mumkin.

**2. Globalashuv jarayonlarining manbai va asosiy belgilari.** Globalashuv jarayonlarining manbai deb, ularning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan omillarga aytiladi. Bunday asos-omillar jumlasiga: birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuz berayotgan tub sifatli o'zgarishlar; ikkinchidan, davlatlarning investitsiya sohasida olib borayotgan yangicha siyosati; uchinchidan, innovatsion ta'limning qamrovlilik darajasining o'sib borishi; to'rtinchidan, jahonda dunyoviy tartibning o'zgarishi natijasida mavjud borliqqa nisbatan yangicha dunyoqarashning vujudga kelishi va shu kabilar kiradi.

Globalashuvning umum e'tirof etilgan quyidagi *asosiy belgilari* mavjud:

- a) xalqaro savdning kengayishi va erkinlashishi;
  - b) xalqaro kapital aylanmasi va uning yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishi;
  - v) elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo'lgan chuqur o'zgarishlar;
  - g) transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi va boshqalar.
- Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot: birinchidan, odamlar dunyoqarashi o'zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlar rivoji odamzot hayotiga ta'siri kuchaytiradi; ikkinchidan, davlatlar va xalqlar o'rtasida birlashishga intilishni kuchaytiradi, ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an'analar va ma'naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko'rsatib berdi<sup>5</sup>.

**3. Globalashuv jarayonining xususiyatlari.** Globalashuv jarayonlariga

xos bo'lgan ba'zi bir xususiyatlar quyidagilardan iborat: inson hayotining barcha jabhalari bo'yicha xalqlar va mamlakatlarning bir-birlariga bog'liqligi va o'zaro aloqadorligining o'sib borishi;

<sup>5</sup> Qarang: Nazarov Q. Falsafa asoslari. – T.: O'zbekiston faylasufi milliy jamiyati nashriyoti, 2012. – B.677-678.



bozorlarning planetar miqyosda kengayishi natijasida umumjahon moliyaiqtisodiy makonining paydo bo'lishi, alohida iqtisodiy tizimlarning global iqtisodiyotga qo'shilib ketishi va yangi iqtisodiy tartibning vujudga kelishi;

axborot sohasida yangi kompyuter va mediateknologiyalar, global televideniya, internetning keng ko'lamda ishlatilishi asosida butun jahon aloqa-muloqot tarmog'ining paydo bo'lishi;

obyektiv mazmundagi demokratiya va turli xil g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan subyektiv maqsadlarda foydalanishning kuchayishi va boshqalar.

XXI asrga kelib insoniyat o'zining hayot sharoitini yanada yaxshilash uchun

tabiat, jamiyat, inson tafakkuri sir-asrorlari qonunlarini yanada chuqurroq o'rganish orqali buyuk kashfiyotlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bularga eng arzon va qulay energiya manbaini topish borasida qilinayotgan kashfiyotlar, masalan, yer qobig'i issiqligidan ("geotermal" bunda — "geo" — yer, — "termal" — issiqlik), odam tanasining doimiy tebranma harakatlanishidan hosil bo'luvchi issiqlik energiyasidan foydalanishni yo'lga qo'yish uchun ishlab chiqilgan — "energetik kastyum", odamlarning yo'laklarda yurishidan hosil bo'ladigan — "yo'l yo'lak energiyasi" hamda — "vodorod yonilg'isi", kishilarning o'sib borayotgan oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan — transgen mahsulotlar, ichimlik suvi muammosini yechishga bag'ishlangan — "tegirmon suvi", kompyuterlashtirishga asoslangan — "aqli uy", — "aqli shahar", yashash joyiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan — "gidropolislar" ("suv osti shaharlari"), — "suzib yuruvchi shaharlar", — "sehrli mo'jizakor nur" (lazer), "supper aqli robotlar", shuningdek, uzoq yashash bo'yicha olib borilayotgan — genmuhandisligi borasidagi bir qator — "ko'z ko'rib, quloq eshitmagan" ilmiy tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Xullas, XXI asrning boshlariga kelib mafkuraviy jarayonlarning universallasuvi shu darajaga yetadiki, undan biror kishi chetda qolayotgani yo'q. U butun Yer yuzini, barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab oldi, dunyodagi barcha odamlar uning ta'siri ostida hayot kechirmoqda.

## Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. —T.: "O'zbekiston", 2017.
2. 2017 йил 4 январдан "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги қонун Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 5-сон,
3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. —T.: "O'zbekiston", 2018.
4. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. —T.: "O'zbekiston", 2018.
5. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. —T.: "O'zbekiston", 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. —T.: "O'zbekiston", 2018 y. 28-dekabr.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. —T.: "O'zbekiston", 1996.
8. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan. —T.: "O'zbekiston", 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. —T.: "O'zbekiston", 2008.
10. Mustaqillik. Ilmiy izohli lug'at. —T.: "SHarq", 1998.
11. Alimova D. Insoniyat tarixi — g'oya va mafkuralar tarixidir. —T.: "Yangi asr avlodi", 2001.
12. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. —T.: "Ma'naviyat", 1999.
13. Буянов В.С. Сущность глобализации //Глобализация: Учебник — М.: Изд-воРАГС, 2008.
14. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. —T.: "O'zbekiston", 1995.
15. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. —T.: 2000.
16. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. —T.: "Sharq", 2001.
17. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. —T.: "Mavoraunnahr", 2016.
18. Aliyev B. Meliqulov A. Axborot xurujlaridan xabardormisiz? —T.: "Ma'naviyat", 2015.
19. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. —T.: "O'zbekiston", 2018.



## 9-MAVZU: O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JARAYONLAR VA MILLIY MAFKURA

**Demokratiya va milliy g‘oya tamoyillarining mushtarakligi** ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli huquqiy demokratik davlatni bunyod etish orqali ozod va obod Vatanda erkin yashashni ta‘minlaydigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish, rivojlantirishga qaratilgan jarayonlarda jamiyat va davlat tomonidan birgalikda qat‘iy tarzda amal qilinadigan asosiy qonun-qoidalar tizimiga aytiladi. Bu quyidagilarda:

- mustaqillikni ulug‘ nemat deb bilish, uni ko‘z qorachig‘iday asrab umrboqiyiligini ta‘minlashida;
- insonning oliy qadriyat, barcha insonlarning qonun oldida teng huquqligining e‘tirof etilishida;
- fuqarolar haq-huquqlarining himoya qilinishi, ota-ona va keksalarga nisbatan alohida hurmat ko‘rsatilishida;
- inson manfaatlarining har narsadan ustunligi, xalqning davlat organlariga emas, davlat organlarining xalqqa xizmat qilishida;
- xalqning hokimiyat manbaini tashkil etishi, ularning bevosita yoki bilvosita davlatni boshqarish ishlarida ishtirok etishida
- zaifalarni himoya qilish, ayol zotiga chuqur ehtirom ko‘rsatish, ularni jamiyatning faol a‘zosiqa aylantirishida;
- ijtimoiy adolat tamoyillarini faoliyat yuritishning mezonini, adolat va ma‘naviyatni ajralmas tarzdagi hayot kuzgusi va hakami deb idrok etilishida;
- islohotlarning demokratiya va g‘oyaviy-mafkuraviy mezonlari asosida olib

borilayotganligi va shu kabilarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek xalqining asosiy maqsadi adolat g‘oyasiga asoslangan demokratik jamiyatni barpo etishdir. Adolat g‘oyasining huquqiy demokratik davlatni barpo etishdagi taktik vazifalari qatoriga jamiyatning kundalik hayoti, shuningdek yaqin ikki, uch yil ichida bajaradigan quyidagi: *birinchidan*, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish;

*ikkinchidan*, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining himoya qilinishini ta‘minlash asosida ular orasidagi muvozanatni saqlab turish;

*uchinchidan*, jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini, ishlab chiqarish faolligini oshirish;

*to‘rtinchidan*, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalovchi vosita sifatida xizmat qilish;

*beshinchidan*, voqeliqda keng ildiz otgan, lekin ijtimoiy taraqqiyotga to‘siqlik qilayotgan munosabatlarni bartaraf etish;

*oltinchidan*, kelajakka ishonch tuyg‘ularini uyg‘otish vazifalarni kiritish mumkin.

Adolat g‘oyasini jamiyatda qaror toptirish uchun kurash yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish bilan tugamaydi. Madomiki, biz mustaqil mamlakat sifatida dunyo turguncha turmoqchi ekanmiz (bunga shubha yo‘q, albatta) adolat g‘oyasini qaror toptirish borasida strategik vazifalarni oldimizga quyish va uni bajarish mexanizmlarini ishlab chiqishni ham talab qiladi. Ana shunday strategik vazifalarni bajarishni o‘z ichiga qamrab olgan birini O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2017 yilning 7 fevralda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonini tashkil qiladi**. Shuni hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, uning har bir bandi ijtimoiy tadolat g‘oyasini amalga oshirish vazifalarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, uning so‘zsiz bajarilishi esa mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyatni barpo etishga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda adolatli demokratik jamiyatni barpo etishda ijtimoiy adolat g‘oyasini amalga oshirish borasidagi strategik vazifalar qatoriga quyidagilarni:

- har bir fuqaroning tabiiy yashash huquqini mustahkamlash va ularning jamiyat oldidagi burch va huquqlarini uyg‘unlashtirib borish;
- har bir fuqaroni o‘zi tanlagan kasb-koriga qarab to‘liq ish bilan ta‘minlashga erishish, ularning ijodiy ish bilan shug‘ullanishiga shart-sharoitlarni yaratib berish;

– har bir fuqaroning salomatligini saqlash bo‘yicha odilona ish olib borish va aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish;

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki adolatli huquqiy demokratik davlatni bunyod etish masalasi odamlarning qalbi va ongiga milliy g‘oya va mafkuraning qanchalik darajada singdirilganligi bilan olibborilayotgan demokratik islohotlar darajasi va sur‘atlari bilan qanchalik mushtarak ekanligiga bog‘liq. Milliy g‘oya va mafkuraning mamlakatimizdagi demokratik taraqqiyotning muhim omili ekanligi



O'zbekistonning bosh strategik maqsadini belgilash va uni amalga oshirish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: “O'zbekiston” 2018.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. – Toshkent, “O'zbekiston” 2018
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.:, “O'zbekiston” 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. –T.:, “O'zbekiston” 2018 yil 28-dekabr.
6. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T., «O'zbekiston», 1996.
7. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidani., –T.: “O'zbekiston”, 1998.
8. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: “O'zbekiston”, 2008.
9. Mustaqillik. Ilmiy izohli lug'at. –T.: “Sharq”, 1998.
10. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
11. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. –T.: “Ma'naviyat”, 1999.
12. Буянов В.С. Сущность глобализации// Глобализация: Учебник –М.: Изд-воРАГС, 2008.
13. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: “O'zbekiston”, 1995.
14. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. –T.: 2000.
15. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T.: “Sharq”, 2001.
16. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. –T.: “Mavoraunnahr”, 2016. -B.206.

17. Aliyev B., Meliqulov A. Axborot xurujlaridan xabardormisiz? –T.: “Ma'naviyat”, 2015.
18. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. T.: “O'zbekiston” 2018.
19. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2012.
20. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari.—T.: “O'zbekiston”, 2007.
21. To'rayev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g'oya. –T.: “Ma'naviyat”, 2008.
22. O'zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma'naviy omillar uyg'unligi. –T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2011.
23. O'zbek tnlining izohiy lug'ati. J.3. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti”, 2007.
24. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lo'g'ati –T.: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi”, 2010.

### 10-MAVZU: MAFKURAVIY KURASHLARNING KO'RINISHLARI

#### Uslubiy qo'llanma

**Mafkuraviy kurashlarning ko'rinishlari Vatan ravnaqi. Yurt tinchligi. Xalk farovonligi. Komil inson. Ijtimoiy hamkorlik. Millatlararo totuvlik. Diniy bag'rikenglik. Jamiyat va davlatda jamoat bi rlashmalarining o'rni va roli kabi tushunchalarni shakllantirish.**

Bugungi kunda biz uchun jondek aziz. O'zbekistonimizning mustaqilligini saqlash, uni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga sog'-omon yetkazib berish, bir so'z bilan aytganda uning abadiyligini ta'minlash uchun ichki va tashqi g'animlarimizga, xususan ekstremizm, terrorizm, radikalizm, shovinizm kabi buzg'unchi vayronkor g'oya va mafkura, ularning amaliy xatti-harakatlariga nisbatan murosasiz kurash olib borish hayotiy zarurat hisoblanadi. Bu kurash mavjud vaziyatdan muntazam ravishda kelib chiqqan holda olib borilsa, kutilgan natija samarani beradi. Bordi-yu, boshqacha tarzda, ya'ni o'ta shafqatsizlarcha olib borilsa, albatta, u yangidan-yangi o'ch olish, to'qnashuv, tarafkashlik kabi ziddiyat, qarama-qarshiliklardan iborat bo'lgan



muammolarni keltirib chiqaraveradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan buzg'unchi vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi kurashni yangi bosqichga ko'tarishning zamonaviy taktik usullar va strategik yo'nalishlari belgilab berildi.

**1. Buzg'unchi-vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi kurashning zamonaviy taktik usullari.** Bugungi kunda buzg'unchi vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi kurashning zamonaviy taktik usullari quyidagilardan iborat:

- buzg'unchi vayronkor g'oya va mafkuralarlar to'riga tushib qolgan, ammo qo'li qonga botmagan holda qaytib kelgan fuqarolarga nisbatan kechirimli bo'lish, ya'ni ularni avf etish;

- kechirilgan fuqarolarni, ularning ota-onalari, oila a'zolari va qarindosh urug'larini kamsitmagan holda ish bilan ta'minlab ijodiy mehnatga, jamoat ishlariga jalb qilish;

- avf etilganlarga nisbatan har bir oila, ijtimoiy guruh, mahalla va boshqa jamoat va mehnat jamoalarida yaxshi ma'naviy-mafkuraviy muhitni yaratish;

- uzoq vaqt davomida qo'shni mamlakatlardan kelib, mamlakatimizda yashab, halol mehnat qilib, shu yurtni tanlagan, biroq fuqarolik huquqiga ega bo'lmaganlarni fuqarolikka qabul qilinish va shu asosida ularning ruhini ko'tarish;

- to'g'ri yo'ldan adashib, chet ellarda xor-zor bo'lib, azob-uqubatlarni ko'rib, tavbasiga tayanib o'z vataniga qaytib kelgan fuqarolar bilan yoshlarning uchrashuvlarni tashkil etib, buzg'uncha-vayronkor g'oyalarning asl mohiyatini ularning vujudida chuqur his ettirish, ularni **SH.M.Mirziyoyev** ko'rsatib o'tganidek: **"Bilim bilan, aql va ma'rifat, namunali ishlar bilan ishonirish kerak. Tarixdan, bugungi hayotimizdan olingan hayotiy, ta'sirchan misollar bilan inontirish kerak"**<sup>6</sup>. Bunday taktik kurash usulining mazmun-mohiyati, amaliy ahamiyati haqida SH.M.Mirziyoyev: "Yo'ldan adashgan bolani darrov dushmanga chiqarmasdan, uni o'zimizning farzandimiz, deb bilishimiz kerak. Unga butun qalbimiz, yuragimiz bilan achinayotganimizni shu bola bilsin. Zora, shunda ularning ham qalb ko'zi ochilsa, to'g'ri yo'lga qadam qo'ysa... Bir bolaning yo'ldan adashishi - bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan

<sup>6</sup> Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik//Uning o'zi. Milliy taraqqiёт yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, -T.: "O'zbekiston", NMU, 2017. - B.476.

kulfat. Bundan avvalo shu bolaning ota-onasi, akaukalari, yaqinlari jabr ko'radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak. Biz esa, afsuski, ulardan o'zimizni olib qochamiz. To'yga chaqirmaymiz, marosimga chaqirmaymiz, u falonchining akasi yoki o'g'li, deb ularning nafratini battar avj oldiramiz, aybsiz odamlarni ashaddiy dushman qilamiz. Natijada nima bo'ladi? Kulfat kamayish o'miga ko'payadi. Boshqa oilalar hayotiga ham kirib boradi. Bugun shu masalani ko'ndalang qo'yadigan vaqt keldi. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy **"Olijanob kishilar uzrni qabul qilur"**, deb ta'kidlagan ekanlar. Xalqimiz - mard va olijanob xalq. Kim chin dildan uzr so'rasa, tavba qilsa, albatta gunohidan kechadi. Shuning uchun hozirgi kunda qancha adashganlarni kechirib, to'g'ri yo'lga solyapmiz. Birini o'qishga, birini ishga, birini kasbga qaytaryapmiz<sup>7</sup>, - degan edi. Bunday taktik usulda kurashning shior — **"O'z bolangi o'zing asru!"** degan g'oya - da'vat hisoblanadi.

**2. Buzg'unchi vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi kurashning**

**zamonaviy strategik yo'nalishlari.** Bugungi kunda buzg'unchi vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi, xususan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda kuch ishlatish usulining o'zini oqlamayotganligini ko'rsatmoqda. Buning misolini qo'shni Afg'oniston va Yaqin Sharq, shuningdek Amerika, Afrika va Yevropaning ayrim mamlakatlarida olib borilayotgan terrorchilikka qarshi kurash ishlarini tashkil etishning taktik usul va strategik yo'nalishlarini belgilash va amalga oshirishda ko'rish mumkin. Bu esa ularga qarshi kurashning taktik usul va strategik yo'nalishlarini tubdan o'zgartirishni taqozo etadi.

Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Ekstremizm va terrorizm tahdidlarining oqibatlarini tugatishga emas, birinchi navbatda ularni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv omillarni tugatishga qarshi kurashish zarur. Bunda shuni unutmastik kerakki *xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi.* Demak, ularga qarshi kurashni strategik jihatdan "ma'rifat va murosasizlik" yo'li bilan olib borishni tashkillashtirish zarur.

<sup>7</sup> Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik//Uning o'zi. Milliy taraqqiёт yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, -T.: "O'zbekiston", NMU, 2017. - B.476-477.



2. Bugungi kunda jahon aholisining qariyb 30% ga yaqinini yoshlar tashkil qiladi. Ekstremistik faoliyat va zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmokda. Bu degan so'z "... odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Chunki, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq"<sup>8</sup>. Demak, *navbatdagi strategik vazifa – bu yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'rvonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdan iboratdir.* Buning uchun esa yosh avlodni ijtimoiy ko'llab-kuvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim.

Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak.

3. Ekstremizm, terrorizm, radikalizm, separatizm kabi jinoyatkorona uyushma tashkilotchilarining ilgari surayotgan har xil mazmundagi vayronkor g'oyalarining amalda qo'llanilishining oldini olishga, qolaversa ularni tag tomiri bilan yo'q qilishga qaratilgan strategik yo'nalishlardan birini jahonda tinchlik o'rnatish, o'zaro hamkorlik qilish, barqaror taraqqiyotga erishishni ko'zlab faoliyat olib borayotgan barcha progressiv kuchlarni yagona bayroq ostida birlashtirish tashkil qiladi. Jahondagi tinchliksevar kuchlar o'zaro birlashmas ekan ekstremizm, terrorizm, radikalizm, separatizm keltirib chiqarayotgan vayronagarchiliklarning oldini olib bo'lmaydi. Buning uchun AQSH, Rossiya, Germaniya, XXR kabi mamlakatlar yagona dastur asosida, BMT shafeyligida ish olib borishi tarixiy zaruriyat hisoblanadi.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.

4. Ekstremizm, terrorizm, radikalizm, separatizm kabilarga qarshi turuvchi eng muhim strategik ma'naviy-ma'rifiy kuchlardan birini islom dini tashkil qiladi. Bugungi kunda bu din 173 mamlakat tarqalgan bo'lib, unga e'tiqod qiluvchilarning soni 1,8 mlrd ga yaqin kishini tashkil etadi. Agar islom olami birinchi navbatda «butun jahon jamoatchiligiga o'zining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazsa»; ikkinchi navbatda, islom ta'limotini noto'g'ri talqin qilib, uning bayrog'i ostida diniy mansublik asosida bo'lingan dunyoni qayta bo'lish uchun kurash olib borayotgan jangarilarning faoliyatiga chek qo'yilsa, shuningdek ular moliyaviy tomirlaridan mahrum qilinsa; uchinchi navbatda, BMT Bosh Assambleyasi "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilsa, shunga qarab har bir davlatda diniy ma'rifat, ta'lim-tarbiya va bag'rikenglik ishlari yo'lga qo'yilsa har bir insonning tabiiy yashash huquqi ta'minlanib dunyoda tinchlik o'rnatilishi muqarrar holatga kelgan bo'lar edi. Bizning bu sohadagi strategik siyosatimizning tub mohiyatini: *"Biz muqaddas dinimizni zo'rvonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosqa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi"*<sup>9</sup>, – degan fikr va amaliy xatti-harakatlar tashkil qiladi.

Shuni unutmash kerakki — *"... ashaddiy terrorchi va ekstremistlar o'z yo'lidan qaytmaydi. Ularning miyasi, butun xo'jayrasi zaharlanib, qo'li qonga botib bo'lgan. Ularga gap uqtirib, insofga chaqirishning hech qanday foydasi yo'q. ... Oqni-oq, qorani-qora, deydigan vaqt keldi. Bizga bunday nonko'rlar kerak emas"*<sup>10</sup>.

25. Demak, ulardan mutloqo voz kechib, O'zbekiston fuqaroligidan mahrum qilish kerak. Ularning jazosi darbadarlik dardiga chalingan vatangado o'limdan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas.

Buzg'unchi vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi kurashdagi strategik yo'nalishlarimizdan biri – bu ular tomonidan uyushtiriladigan har qanday tahdidlarning oldini olishga moddiy va ma'naviy jihatdan shay bo'lib turish, har qanday agressorning ta'zirini berib tavbasiga tayantirish borasida yetarlicha kuch va imkoniyatlarga ega bo'lishni ta'minlashdan iboratdir. Bizning bu

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyevning 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.  
<sup>10</sup> Mirziyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik // Milliy taraqqiёт yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, –T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017. – B. 478.



boradagi asosiy taktik va strategik vazifamiz. *“yurtimizga qilich ko‘tarib kelgan yovuz kuchni, qilichning o‘tkir tig‘i bilan halok qilish”* dan iboratdir.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat‘iyat bilan harakat qilaylik // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild, –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent, “O‘zbekiston” 2018.
16. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston” 2018.
17. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O‘zbekiston” 2017.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2018 y, 28-dekabr.
20. 13. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan. 6-jild, –T.: “O‘zbekiston” 1998.
21. 14. Karimov I.A. Ma‘naviy yuksalish yo‘lidan., –T.: “O‘zbekiston” 1998.
22. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch. –T.: “O‘zbekiston” 2008.
23. Alimova D. Insoniyat tarixi – g‘oya va mafkuralar tarixidir. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
24. Abilov O‘. Milliy g‘oya, ma‘naviy omillar. –T.: «Ma‘naviyat», 1999.
25. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: “O‘zbekiston” 1995.
26. Boboyev X., G‘ofurov Z., O‘zbekistonda siyosiy va ma‘naviy-ma‘rifiy ta‘limotlar taraqqiyoti. –T.: 2000.

27. Ziyoev X. O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T.: “Srarq”, 2001.
28. Milliy g‘oya va rahbar mas‘uliyati. –T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2007. – B.390-391.
29. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” 2018.
30. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2012.
31. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. –T.: “O‘zbekiston” 2007.
32. To‘rayev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g‘oya.–T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
33. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma‘naviy omillar uyg‘unligi.–T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2011.

### 11-MAVZU: MILLATNING ETNOIJTIMOIY BIRLIK SIFATIDA MAVJUD BO‘LISHI VA RIVOJLANISHINI

#### Uslubiy qo‘llanma

Millat hududiy, iqtisodiy, siyosiy va etnik aloqalar (madaniyat, til, o‘z-o‘zini anglash), erkin va ozod taraqqiyotni g‘oyaviy asoslash, мустанақликни та‘минлайдиган ғоялар, ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маданий ривожланишга қаратилган қарашлар тизими нима эканлиги ва бу тushunchага talaba tomonidan tarif berilishi so‘ralib shuningdek milliy mentalitet, milliy qadriyatlar kabi tushunchalarga tarif berilishi kerak.

Har bir xalqning mustaqilligi ijtimoiy borliq sifatida o‘ziga xos bo‘lgan bir qator atributlarga 2 ham egadir. Har bir xalq mustaqilligining atributlari deb, uning o‘ziga xos ravishda ijtimoiy borliq sifatida mavjudligini ta‘minlaydigan, undan ajratib bo‘lmaydigan eng muhim xarakterli xususiyatlariga aytiladi. Bu xususiyatlar mustaqillikning shakllari sifatida o‘zini har tomonlama namoyon qiladi. Shunga ko‘ra mustaqillikning atributiv xususiyatlarini ifodadovchi shakllariga quyidagilar: siyosiy mustaqillik; iqtisodiy mustaqillik; ma‘naviy-madaniy-ma‘rifiy mustaqillik kiradi

1. **Siyosiy mustaqillik: ta‘rifi, tabiati va belgilari.** Siyosiy mustaqillik deb, har bir millat va xalqning o‘z davlat hokimiyatiga, davlat muassasalariga, konstitutsiyasiga, fuqaroligiga, tiliga, milliy puliga, davlat ramzlariga, davlat chegarasiga ega bo‘lgan holda o‘zini



o'zi idora etish, mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizish, o'z taqdirini o'zi hal qilishdan iborat bo'lgan ijtimoiy-siyosiy borlig'iga aytiladi. Siyosiy mustaqillik eng avvalo har bir millat va xalqning davlat hokimiyatini qo'lga kiritishdan boshlanadi. Davlat hokimiyati qo'lga kiritilmasa, mustaqillikka erishib bo'lmaydi. Zero, siyosiy mustaqillikning ijtimoiy-huquqiy tabiati, eng avvalo, davlat hokimiyatini qo'lga kiritish, uning qonuniyligini ta'minlash, so'ngra, davlatning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan qonun-qoidalarini ishlab chiqish, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlab, qat'iy tartib-intizom o'rnatish bilan xarakterlanadi. O'zbek xalqi siyosiy mustaqilligining asosiy atributiv belgilari quyidagilardan iboratdir:

1) davlatimizning dunyo mamlakatlari orasida huquqiy maqomini belgilovchi, "xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi"<sup>11</sup> bo'lgan asosiy qonuni – Konstitutsiyasining mavjudligi;

2) davlatning bo'linmas hudud va dahlsiz chegaralariga, ya'ni – dunyo xalqlari o'rtasida makon va zamonga egaligi;

3) davlatning suveren hokimiyatga egaligi va u demokratik tamoyillar asosida tashkil etilib, uch asosiy tarmoqqa – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'linganligi;

4) davlatni har qanday tajovuzlardan himoya qiluvchi kurulli kuchlarining borligi;

5) davlatning milliy manfaatlarini o'zida ifodalagan, umuminsoniylik prinsiplariga asoslangan qonunlari, kodekslari va boshqa normativ – huquqiy hujjatlarining mavjudligi;

6) davlatning o'z ramzlari – bayrog'i, gerbi, madhiyasi va poytaxtiga ega ekanligi;

7) o'zbek xalqining referendumlar orqali davlatni boshqarish ishida bevosita va faol qatnashishi;

8) davlatning o'ziga xos bo'lgan milliy ma'muriy boshqaruv tizimiga egaligi;

9) davlatning xalqaro maydonda mustaqil tashqi siyosat yurgizishi va hokazolar.

**2. Iqtisodiy mustaqillik: ta'rifi, tabiati va belgilari. Iqtisodiy mustaqillik deb, har bir millat va halqning o'z tabiiy va moddiy**

*boyliklariga to'la huquqiy sohib bo'lib, ishlab chiqarish, iste'mol, taqsimot, ayriboshlash munosabatlarini mustaqil ravishda tashkil etish, yashash uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni yaratish faoliyati asosiga qurilgan ijtimoiy-iqtisodiy borlig'iga aytiladi.* Iqtisodiy mustaqillikning ijtimoiy-huquqiy tabiati – *birinchidan*, tabiiy resurslarga, yerga, zavod-fabrikalarga egalik qilishda ko'rinsa; *ikkinchidan* – ishlab chiqarishni tashkil etish, ayriboshlash, taqsimot, iste'molni amalga oshirishning o'ziga xos yo'lini ishlab chiqish va uning qonuniyligini ta'minlashda yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi iqtisodiy mustaqilligining asosiy atributiv belgilarini:

– davlatning tabiiy va moddiy boyliklarga egaligi;

– davlatning o'ziga xos bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotining mavjudligi; – davlatning budjet, moliya, soliq va bojxona, bank tizimlariga egaligi; – davlatning oltin zahirasi va boshqa qimmatbaho buyumlardan iborat xazinasini, o'zining milliy valyutasi;

– pulining borligi; – davlatning mustaqil ravishda boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib borishi va hokazolar tashkil qiladi.

**3. Madaniy-ma'rifiy mustaqillik: ta'rifi, tabiati va belgilari.**

*Madaniy-ma'rifiy mustaqillik deb, - har bir inson, millat va xalqning olamda yuz berayotgan voqea, narsa, hodisa va jarayonlarga nisbatan erkin fikr bildirishiga, o'zining milliy hislatlarini, fazilatlarini umuminsoniy qadriyatlarga mos ravishda namoyish qilish asosida betakror ma'naviyatquraviy borliq yaratish faoliyati asosiga qurilgan madaniy borlig'iga aytiladi.*

Madaniy-ma'naviy-marifiy mustaqillikning ijtimoiy-huquqiy tabiati esa o'zligini va o'zini anglash bilan xarakterlanadi. Holbuki, "tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyikdan, qullikdan qutulmasa inson to'la ozod bo'lolmaydi"<sup>12</sup>.

O'zbekiston ma'naviy-madaniy-ma'rifiy mustaqilligining asosiy atributiv belgilariga quyidagilar kiradi:

1) o'zbeklarning xalq sifatida 3000 yildan buyon tarixiy makon va zamonda o'z o'rniga egaligi;

2) o'zbek tilining davlat tili sifatida qaror topib, fan va ijod tiliga aylanib o'zbek xalqi ajdodlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasining beqiyosligi;

<sup>11</sup> Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon ha'itimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir// — "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 8 dekabr.

<sup>12</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari //Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: "O'zbekiston", 1996. – B.34.



3) mamlakatimizda millatimiz faxri va g'ururi bo'lgan tarixiy yodgorliklar, kitoblar, xalq amaliy san'ati do'rdonalarning mavjudligi va ularning dunyo miqyosida tan olinganligi;

4) o'zbek xalqining o'ziga xos, o'ziga mos milliy urf-odatlar, an'analari, marosimlari va dinining qadimiyligi hamda betakrorligi;

5) o'zbeklarning insonparvarligi, vatanparvarligi, sadoqatligi, bolajonligi, mehmondo'stligi, mehribonligi, sahiyligi va hokazolar. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy mustaqillik o'zaro uzviy aloqadorlikdadir. Ularni bir biridan ajratish mumkin emas, zero, ular birlarini muntazam to'ldirib boraveradi.

**4. Mustaqillik – o'zbek xalqi g'oya va mafkurasining hayotiy zamini.** Har qanday millat, xalq o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan o'zing yashashini va kelajagini ta'minlovchi asoslarini yaratishi ham lozim. Bunday asoslar mustaqillikka erishgan mamlakatning iqtisodiyoti qay tarzda tashkil etilganligi, xalqning qanday huquq va erkinliklarga ega bo'lganligi, davlat hokimiyati qo'lga qanday vakolatlar berilganligi hamda xalqning qanday a'naviy-madaniy imkoniyatlari borligiga, ularning g'oyaviy mazmuni qanday bunyodkor mafkuralar tizimiga asoslanganligi bilan belgilanadi. Bularning barchasi xalqlarning mustaqil hayot kechirish faoliyatlarining asoslari hisoblanadi.

*Xalqlarning mustaqil hayot kechirish faoliyatlarining asoslari deb, har bir millat, xalqning mustaqilligini ta'minlovchi moddiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy omillarning mavjudligi va ularning mazkur millat, xalq hayotini, uning ehtiyojlarini to'la qondirishga qaratilgan imkoniyatlarning amalga oshish darajalariga aytiladi.*

Bundagi imkoniyatlarning voqelikka aylanishida bunyodkor g'oyalarga asoslangan mafkuraviy tizimning o'rni alohida ajralib turadi. Bunyodkor mafkuralar inson faoliyatining ichida joylashib olgan holda, ularni kelajakda buyuk ishlarni bajarishga safarbar etuvchi g'oyalar tizimidan tashkil topgan bo'ladi. Shunga ko'ra, ular sohaviy yo'nalishlariga qarab: iqtisodiy g'oyalar, siyosiy g'oyalar, huquqiy g'oyalar, ma'naviy-madaniy-ma'rifiy g'oyalar kabi turlarga ajraladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2018.

2. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, –T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: “O'zbekiston”, 2018.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. –T.: “O'zbekiston” 2018.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O'zbekiston”, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild, –T.: “O'zbekiston”, 1998.
8. 14. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan., –T.: “O'zbekiston”, 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch–T.: “O'zbekiston”, 2008.
10. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
11. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. –T.: “Ma'naviyat”, 1999.
12. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. –T.: “O'zbekiston”, 1995.
13. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. – T.:2000.
14. Ziyoyev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. –T.: “Srarq”, 2001.
15. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati. –T.: “G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2007. – B.390-391.
16. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: “O'zbekiston” 2018.
17. Nazarov Q. Falsafa asoslari. –T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2012.
18. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. –T.: “O'zbekiston”, 2007.



19. To'rayev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g'oya. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.
20. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘unligi. –T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2011.

**12-MAVZU: MILLIY G‘OYA VA MAFKURA  
TARG‘IBOTCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI VA  
UNING ASOSIY BELGILARI. MILLIY TARBIIYA– MILLIY  
MAFKURA SIFATIDA**

**Uslubiy qo‘llanma**

Milliy tarbiya tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari, qadriyatlar, urf-odat, an’analar, din, e’tiqod, oila mahalla, jamiyat, qo‘ni-qo‘shnichilik va shukabi tushunchalar orqali milliy tarbiyaga ta’rif berilgan holda ilmiy asoslangan holda mavzu yoritib berilishi kerak.

Umuman, milliy ongning mohiyati va ahamiyatini vatanparvarlik va milliy birlik tuyg‘usiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishdir. Bozor munosabatlari sharoitida vatanparvarlik tuyg‘usining ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyati yanada ortishiga *хизмат қилиши зарур*.

Innovatsion faoliyat mafkura targ‘ibotchining ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi hamda u quyidagi belgilar:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- g‘oya va mafkura tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish
- o‘zidan boshqa targ‘ibotchilar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish kabilar asosida namoyon bo‘ladi.

**Milliy g‘oya va mafkura targ‘ibotida qo‘llaniladigan innovatsion ma’ruza, seminar va interfaol metodlar.** Milliy g‘oya va

mafkura targ‘ibotchisi tomonidan qo‘llaniladigan innovatsion interfaol metodlarni quyidagi guruhga ajratish mumkin.

**1. Milliy g‘oya va mafkura targ‘ibotda o‘qiladigan ma’ruzalarning noan’anaviy novatsion shakllari.** Bunga asosan: 1) *muammoli ma’ruza* – muammoli vaziyat tomonidan qo‘yilayotgan muammoli masalaning yechimini muammoli savollar qo‘yish orqali tushuntirish; 2) *ma’ruza-maslahat* – oldindan tayyorlangan savollarga tinglovchilarning javobini eshitish orqali, ular bilan bahsga kirishib aniq to‘g‘ri javoblarni bayon qilish, hayotiy misollar bilan isbotlash; 3) *ma’ruza - ikkovlon* – ikki yoki undan ortiq targ‘ibotchilar tomonidan oldindan tayyorlangan ssenariy asosida bir mavzu bo‘yicha turli xil fikrlar borligini ilmiy-amaliy jihatdan ko‘rsatish; 4) *ma’ruza-munozara* – oldindan tanlanib tayyorlangan savollar asosida auditoriya bilan muloqotga kirishish orqali mavzuni yoritish; 5) *ma’ruza tadqiqot* – yoritilayotgan mavzuning tugunli bosqichlarini tushuntirishda tinglovchilarning ilmiy fikrlash asosida xulosalar chiqarish mantig‘ini shakllantirish; 6) *vizual ma’ruza* – o‘qilmaydigan, balki kino, tele va videokadr, diskdagi axborotlar bloki orqali namoyish etiladigan, ayni vaqtda targ‘ibotchi tomonidan sharhlanadigan ko‘rsativ kabilar kiradi. Buning isbotini, *«O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi – “jamiyatimiz milliy taraqqiyotining strategik — yo‘l xaritasi”* nomli o‘qiladigan vizual ma’ruza misolida ko‘rish mumkin.

**2. Milliy g‘oya va mafkura targ‘ibotida olib boriladigan seminar mashg‘ulotlarining noan’anaviy innovatsion shakllari.** Bularga:

- 1) “Suqrotcha” – suhbatdoshni savol-javobga jalb etgan holda fikrlashga o‘rgatish;
- 2) “Aqliy hujum” – har qanday ishonchli bo‘lmagan, xayoliy, mantiqqa mos kelmaydigan javoblarni hech bir tanqidsiz tahlil, taqqoslash va tanlash asosida eng to‘g‘ri variantini tanlab olish;
- 3) “Aylana stol” – qo‘yilayotgan muammoning yechimini jamoa bo‘lib muhokama qilish asosida topish va shu kabilar kiradi.

**3. Milliy g‘oya va mafkura targ‘ibotida qo‘llaniladigan interfaol metodlar.** Zamonaviy sharoitda milliy g‘oya va mafkura targ‘ibotining samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li - bu targ‘ibotning tashviq qilishda olib boriladigan mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanadi. Xo‘sh, interfaol metodlarning o‘zi nima? **Interfaol metod** – bu («inter» - o‘zaro va «act» - harakat



qilmoq) targ'ibotchi va tinglovchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini, beriladigan axborotlarini o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantirishga, shuningdek, targ'ibot maqsadlarining to'laqonli amalga oshirishga yordam beruvchi chora-tadbirlar majmuasi bo'lib, u hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmokda:

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy g'oya va mafkura targ'ibotini tashkil etuvchi muassasalarida quyidagi eng ommaviy interfaol ta'lim texnologiyalar qo'llanilmokda:

1. **Interfaol metodlar:** — “Keys-stadi” (yoki — “O'quv keyslari”), — “Blits so'rov”, — “Modellashtirish”, — “Ijodiy ish”, — “Munosabat”, — “Reja”, — “Suhbat” va b.
2. **Strategiyalar:** — “Aqliy hujum”, — “Bumerang”, — “Galereya”, — “Zig-zag”, — “Zinama-zina”, — “Muzyorar”, — “Rotatsiya», — “T-jadval”, — “Yumaloqlangan qor” va h.k.
3. **Grafik organayzerlar:** — “Baliq skeleti”, — “BBB”, — “Konseptual jadval», — “Venn diagrammasi”, — “Insert”, — “Klaster”, — “Nima uchun?”, — “Qanday?” va b.sh.k.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, milliy g'oya va mafkura targ'ibotida innovatsion interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llashlari natijasida tinglovchilar quyidagi: guruh eki jamoa bilan hamkorlikda ishlash; muammoni hal qilishga ijodiy endashish; guruh eki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish; o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoèn qila olish; fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash; o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash; o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish; turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. —T.: “O'zbekiston”, 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik //Milliy


- taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, —T.: “O'zbekiston”, NMIU, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. —T.: “O'zbekiston”, 2018
4. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oily bahodir. 2-jild. —T.: “O'zbekiston”, 2018
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. —T.: “O'zbekiston”, 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. —T.: “O'zbekiston”, 2018 y, 28-dekabr.
8. 13. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild, —T.: “O'zbekiston”, 1998.
9. 14. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lidan. —T.: “O'zbekiston”, 1998.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. —T.: “O'zbekiston”, 2008.
11. Alimova D. Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir. —T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
12. Abilov O'. Milliy g'oya, ma'naviy omillar. —T.: “Ma'naviyat”, 1999.
13. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. —T.: “O'zbekiston”, 1995.
14. Boboyev X., G'ofurov Z., O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. —T.: 2000.
15. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. —T.: “Srarq”, 2001.
16. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati. —T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
17. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. —T.: “O'zbekiston”, 2018.
18. Nazarov Q. Falsafa asoslari. — T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2012.



19. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2007.
20. To‘rayev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g‘oya. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008.
21. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma‘naviy omillar uyg‘unligi. –T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2011.

**Fan bo‘yicha tarqatma materiallar**

**“Nimaga” sxemasi:**



**Quyidagi jadvalni to‘ldiring:**


Bunyodkor g‘oyalar	Vayronkor g‘oyalar

Savol: O‘zbekiston Respublikasining olamshumul muammolar yechimiga qo‘shayotgan hissasini SVOT jadvali asosida tahlil qiling.

C	O
---	---

B	T
---	---

**“Sinkveyn” texnikasi**





- 1-qator - tushuncha.
- 2-qator - tushunchani xarakterlovchi ikkita sifat.
- 3-qator – ushbu tushuncha funksiyalari to‘g‘risidagi uch fe‘l.
- 4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to‘g‘risidagi to‘rt so‘zli so‘z birikmasi.
- 5-qator - ushbu tushuncha sinonimi.

**SVOT - tahlil**






- S – kuchli tomon
- W – kuchsiz tomon
- O - imkoniyatlar
- T- xavf-xatarlar













2.1-CHIZMA





2.2-CHIZMA



2.3-CHIZMA











Aslida, mening nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch -  
bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi.


*Islom Karimov.*



Yakkahokimlikka intilgan, mutlaq haqiqatni da'vo qiladigan mafkuraning istiqboli yo'q. Chunki u yakkahokimlik o'rnatish barobarida o'zini boyitib boradigan manba - fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligidan uzulib qoladi. Muayyan guruh yoki partiya g'oyalari hukmron mafkuraga aylansa, hurfikirlik, vijdon erkinligi va qarashlar xilma-xilligi cheklanadi, mutlaq haqiqatga egalik da'vosi, mustabidlik tamoyillari kuchayadi.



2.8-CHIZMA




Bunyodkor g'oyalar taraqqiyotga xizmat qiladi, jamiyat va insonni ezgulikka undaydi.


2.9-CHIZMA





2.10-CHIZMA




2.11-CHIZMA.









3.3-CHIZMA



3.4-CHIZMA.




3.5-CHIZMA.






3.6-CHIZMA.




3.7-CHIZMA.




3.8-CHIZMA.


*Hozirgi davrda Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli bu mintaqaga nisbatan geopolitik yondashuvlarning ifodasi bo'lgan mafkuraviy jarayonlar murakkablashib bormoqda. Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo'lgan ishonch-e'tiqodni mustahkamlash yo'lida xavf-xatarlarning oldini olish uchun mutasil ogoh bo'lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqa xalqlari uchun hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi.*




3.9-CHIZMA.



4.1-CHIZMA.




4.2-CHIZMA.







4.3-CHIZMA.




4.4-CHIZMA.




4.5-CHIZMA.





5.1-CHIZMA.







5.3-CHIZMA.




5.5-CHIZMA









5.8-CHIZMA.



5.9-CHIZMA.




5.10-CHIZMA.



5.11-CHIZMA.







**Mafkura** – fikrlar majmui, g'oyalari tizimi, e'tiqod.

**Milliy g'oya** - millatning o'tmishi, buguni, istiqboli, manfaat va maqsadini ifodalovchi ijtimoiy g'oya.

**G'oya** - muayyan fikr, maqsad sari yetaklovchi kuch.

**Manfaat** – individ yoki ijtimoiy guruh faoliyatini, xulqini belgilaydigan asosiy omil.

**G'oyaviy tarbiya** – Jamiyatdagi mavjud g'oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishdir. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

**G'oyaning turli ko'rinishlari** – Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga bo'linadi.

**Bunyodkor g'oyalar** – 1) Islom Karimov tomonidan nazariy jihatdan asoslab berilgan tushuncha; 2) Jamiyat va odamlarni, turli guruh va qatlamlar, millat va davlatlarni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi g'oya.

**Vayronkor (buzg'unchi) g'oyalar** – 1) bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuni ifodalaydigan tushuncha; 2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalardir.

**Milliy istiqloq g'oyasi** – Milliy istiqloq g'oyasi O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

**Milliy istiqloq mafkurasi** – Milliy istiqloq mafkurasi har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma'naviy mezondir.

**Milliy istiqloq g'oyasining asosiy g'oyalari** – Vatan ravnaqini ta'minlash va yuksaltirish; Yurt tinchligini ta'minlash va asrash; Xalq farovonligini ta'minlash; Komil insonni tarbiyalash; Ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash; Millatlararo totuvlikni ta'minlash; Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik);

**Milliy istiqloq g'oyasining bosh g'oyasi** – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir.

**Shovinizm** – millatchilikning o‘ziga xos shakli, boshqa millatlarni mensimaslik va o‘z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti.

**Millatchilik** – o‘z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haquqlaridan yuqori qo‘yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim.

**Davlat** – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo‘lgan siyosiy tashkiloti.

**Modernizm** – dindagi zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanishni yoqlab chiquvchi oqim.

**Traditsionalizm** – an‘anaviylik. Diniy aqidalarni va konsepsiyalarni fan-texnika va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga qarab qayta ko‘rib chiqishni rad etuvchi oqim.

**Fundamentalizm** – ma‘lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish.

**Mafkuraviy immunitet** – lotincha Immunitatis so‘zidan olingan bo‘lib –biror narsadan ozod etish ma‘nosini anglatadi. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta‘sirlardan ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim.

**Barqarorlik** – tinchlik, osoyishtalik.

**Vatan ravnaqi** – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g‘oyadir.

**Yurt tinchligi** – mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik –insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir.

**Xalq farovonligi** – har bir shaxs va oila farovonligi insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashib ketadi.

**Komil inson** – insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, gumanistik g‘oyalarga munosabati.

**Ijtimoiy xamkorlik** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruxlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

**Millatlararo totuvlik** – muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi.

**Diniy bag‘rikenglik** – xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi.

**Ichki taxdidlar** – o‘z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, xatti-harakatlardir.

**Tashqi taxdidlar** – tashqi tahdidlar asosan g‘oyaviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘ladi.

**Ekstremizm** – o‘z maqsadi yo‘lida har qanday keskin tadbir-choralar ko‘rishga tarafdorlik.

**Hizbut-taxrir** – reaksion ruxdagi diniy-siyosiy tashkilot bo‘lib, arab tilidan “Ozodlik partiyasi” degan ma‘noni bildiradi.

**Mulk** – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarish va kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda ifodalanadi. Mulkning ijtimoiy va xususiy shakllari mavjud.

**Bozor iqtisodiyoti** – iqtisodiy aloqalarning yig‘indisi bo‘lib o‘z qonunlariga ega, ya‘ni: erkin raqobat, ehtiyoj va ishlab chiqarish, talab va takliflarning miqdori va tarkibini bir-biriga muvofiqlashtirish, xususiy mulkchilik shakllarining xilma-xilligi, mulkka egalik, xo‘jalik yuritish ishlariga faqat iqtisodiy usullar bilan ta‘sir ko‘rsatish, fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish kabi iqtisodiy qonunlarga bo‘ysunadi. Bozor iqtisodi xalqning ijodi va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlik uchun keng yo‘l ochadi.

**Mentalitet** – (lotincha “mens” - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma‘naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

**Demokratiya** – xalq hokimiyati.

**Yangi jamiyat** – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat.

**An‘ana** – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma‘naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

**Urf-odat** – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar.

**Mustaqillik** – 1) Tazyiqdan, nazoratdan xoli bo‘lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy tobe bo‘lmaslik. O‘zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqolol so‘zi bilan yaqin ma‘noda qo‘llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi.

**Fenomen** – (yun. Phainomenon – yuz beruvchi) – 1) ko‘zga ko‘rinib turgan hol; 2) noyob, kam uchraydigan hol, yoki buyuk, yagona



bo'lgan inson; 3) hissiy bilish, tajribada berilgan ma'lum bir holni anglatuvchi falsafiy atama; hissiy tajriba yordamida payqaladigan va anglanadigan hodisa, jonli mushohada obyektini bildiradigan tushuncha.

**Milliy g'urur** – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

**Muxolifat** – (arabcha “muholafat” - kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo'lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo'l, demokratiyaning muhim belgisi. Muholifat uch xil bo'lishi mumkin: a) parlament doirasida; b) undan tashqarida; yohud v) siyosiy partiyalar ichida.

**Ma'rifat** – ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi.

**E'tiqod** – dunyoqarash. Biror dinga e'tiqod qilish – uni haq deb bilib, uni ta'limotini tan olish.

**Tasavvuf** – islomdagi diniy-falsafiy oqim. 8 asrda arab mamlakatlarida paydo bo'lgan. Bu ta'limot o'sha davrda savdogarlar va kosiblarning manfaatini ko'zlagan. Tasavvufning asosiy mohiyati inson va uning Xudoga munosabatidir, ya'ni solihning Xudo vasliga yetishishidir.

**Komillik** – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolliq darajasini ifodalovchi tushuncha. Komillikning har bir davrga xos mezonlari mavjud. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg'ayrat, qo'rqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vositasini o'taydi.

**Qadriyat** – umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy, diniy turlarga bo'linadi.

**Aksiologiya** – (yun. “axio” - qadriyat va “logos” - fan, ta'limot) – qadriyatshunoslik; qadriyatlar haqidagi fan.

**Milliylik** – muayyan xalqqa xos bo'lgan, uni boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi,

qadriyatlari, an'analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo'ladi.

**Ma'naviyat** – (arabcha – ma'nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

**Umuminsoniy qadriyat** – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va ma'naviy manfaat, mezonlar majmui.

**Milliy qadriyat** – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyat shakli.

**Umumbashariy** – butun dune, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi.

**Ozodlik** – barcha demokratik erkinliklarga erishishning, haq-huquqlari kafolatlangan va ta'minlangan jamiyatning bosh sharti.

**Obod Vatan** – fuqarolari erkin, ozod, yaratuvchilik faoliyati bilan band bo'lgan, xavfsizligi ta'minlangan farovon hayot qurish makoni.

**Fuqarolik jamiyati** – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

**Ehtiyoj** – inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

**Integratsiya** – milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va, mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashishi, bir-birlariga o'zaro ta'sir etishi jarayoni.

**Vatanparvarlik** – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat.

**Demokratik institutlar** – jamiyatning demokratik tuzumini barpo etishga xizmat qiluvchi omil bo'lib, unga quyidagilar kiradi. 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar. 2) Yuridik maqomga ega bo'lgan muxolifat. 3) Mulkchilik instituti.

**Sharqona demokratiya** - urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o'ziga xos demokratiya.

**Siyosiy demokratiya** - jamiyat siyosiy tizimini xalqqa yaqinlashtirish, siyosiy adolatsizliklarning oldini olish.



**Ijtimoiy demokratiya** - bugungi davr demokratiyani islohotlar jarayoniga aylantirish.

**Irqchilik** – odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo‘ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqilariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g‘ayrimilliy ta‘limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko‘zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog‘lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko‘st va noraso irqilarga ajratadilar.

**Aqidaparastlik** – muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat‘iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma‘noda qo‘llanib, muayyan olim yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta‘sir doirasini sun‘iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

**Fanatizm** – Biron g‘oyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqur anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

**Manqurt** – “Manqurt” o‘z eli, tarixi, qon-qarindoshini, hatto o‘zi tuqqan onasini ham unutgan, o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydigan kishilar va xalqlarning majoziy obrazi. U xalqlarning manqurtlarga aylanishida bosh aybdor davlat va mafkuraga to‘la bo‘ysundirilgan jamiyatdir degan xulosaga keladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida “Manqurt” afsonasidagi shaxs obrazi.

**Tafakkur** – (arabcha – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya‘ni qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.

**Vatan tuyg‘usi** – Vatan tuyg‘usi bo‘lgan kishidagina vatanparvarlik jo‘sh uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: “Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug‘iladi. Ya‘ni, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo‘ladi”.

**Targ‘ibot-tashviqot** – insonni biror xarakterga rag‘batlantirish va kishida biror narsaga shavq uyg‘otishga yo‘naltirish.

## MUNDARIJA

"Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risida"gi Namunaviy Nizom.....	4
Mustaqil ta‘lim mavzulari va bayoni.....	7
1-MAVZU: Milliy g‘oya - O‘zbekiston jamiyati rivojlanishining g‘oyaviy asosi.....	8
2-MAVZU: Korruptsiyaga qarshi kurashishning g‘oyaviy va huquqiy asoslari.....	11
3-MAVZU: Axborot tizimlarida ichki va tashqi tahdidlar.....	15
4-MAVZU: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojining muhim sharti.....	21
5-MAVZU: “Harakatlar strategiyasi” ning asosiy yunalishlari, maqsadi va mohiyati.....	24
6-MAVZU: Markaziy osiyo mutafakkirlarining falsaviy qarashlari, milliy g‘oya, g‘oyaviy ta‘sir etish usullari .....	28
7-MAVZU: Axborot makonidagi o‘zgarishlar, axborot sohasini isloh qilish.....	31
8-MAVZU: Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar.....	36
9-MAVZU: O‘zbekistonda demokratik jarayonlar va milliy mafkura.....	40
10-MAVZU: Mafkuraviy kurashlarning ko‘rinishlari.....	43
11-MAVZU: Millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bolishi va rivojlanishini.....	49
12-mavzu: Milliy g‘oya va mafkura targ‘ibotchisining innovatsion faoliyati va uning asosiy belgilari.....	54
Milliy tarbiya – milliy mafkura sifatida.....	58
Fan bo‘yicha tarqatma materiallar.....	89
GLOSSARIY.....	



**OMONOV BAHODIR NURILLAYEVICH**

**“MILLIY G‘OYA: O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH  
STRATEGIYASI”**

**fanidan talabalarga mustaqil ishlarni bajarilishi bo‘yicha**

***Uslubiy-qo‘llanma***

29.01.2020 chop etishga ruxsat etildi,

Ofset qog‘oz

Bichimi 84x108 1/16

Bosma tobog‘i t.4,33

Shartli bosma t. 4,05

Buyurtma № 7 Adadi 50 nusxa.

---

QarMII kichik bosmaxonasida chop etildi.

Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225 - uy.

